1-son, 2024

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

ISSN: 2181-4465

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal



ORIENTAL UNIVERSITETI

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

(Birinchi son)

Toshkent-2024

“Innovatsion pedagogika va psixologiya”
ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

Bosh muharrir:

Nishanova Z. T. – psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Egamberdiyeva F.O. – pedagogika fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrirlar:
Umarov B.M. – psixologiya fanlari doktori, professor
Nishanova D. K. – t.f.f.d., (PhD), dotsent v.b.

Musahhih:
Yunusov K.A.

Tahrir hay’ati a’zolari:

Kozlov V.V.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya);*
Lekerova G.J.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Qozog‘iston);*
Sibel Sönmaz	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Turkiya);*
Shafiyeva I.I.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon);*
Palatkina G.V.	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya);*
Xazova S.A.	*Psixologiya fanlari doktori, dotsent (Rossiya);*
Ibragimov X.I.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Mirqosimova M.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Muslimov N.A.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xalilova Sh.T.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xodjayev B.X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Kadirova M.R.	*Pedagogika fanlari doktori, professor.*
Shoumarov G‘. B.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik;*
Karimova V.M.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Atabaeva N.B.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Abdullaeva D.U.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Baykunusova G.Y.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Qarshieva D.S.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Nishanov S.Y.	*Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD*)

MUNDARIJA

Mirqosimova Marg‘uba Mirqobilovna
Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati 4

Quchqorova Nargiza Mamajonovna, Allaberganova Nargiza Polvannazirovna
Polifunksional yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi 15

Umarov Baxriddin Mengboyevich, Rustamova Barno Abduhalilovna
Tuyg‘ular psixologiyasi va funksiyalari 24

Вохидов Шодмон Хусейнович
Внеурочная деятельность как возможность для проектирования индивидуального роста личностного развития младшего школьника 34

Хохлова Любовь Прокофьевна
Репертуар интерактивных площадок в обучении студентов вузов 46

Шафиева Эльнара Ибрагим кызы
Размышления о современных проблемах психологии 54

Муротмусаев Комилжон Бурибаевич
Духовное и физическое развития человека как культура межличностного общения в семье 61

Egamberdiyeva Farida Oktamovna, Usmonboyeva Mahfuza Hakimjonovna
Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish masalalari 73

Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna
Shaxsiy karyera rivojlanishida perfektsionizmning psixologik ta’siri 80

Ma’murbekova Gulzoroy A’zamjon qizi
Yosh sambo kurashchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida maxsus o‘yinlar orqali jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish 87

Alimbayeva Shaxlo Tursunovna, Nosirova Zamira Xosil qizi
O‘zbek milliy etnopsixologik xususiyatlarining somatik frazeologizmlarda ifodalanishi 93

Raximova Nodira Bahodirjon qizi
Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 100

Xudayberdiyeva Muhayyo Qarshiboyevna
Ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarning xalqaro tadqiqot topshiriqlari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish 113

Lekerova Gulsim Zhanabergenovna, Yessirkepova Uldanay Rustembekyzy
Prerequisites for the successful education of children with autism spectrum disorders in a primary comprehensive school: the experience of parents 124

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA REFLEKSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF USING REFLECTIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TRAINING FUTURE TEACHERS

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Mirqosimova Marg‘uba Mirqobilovna
Pedagogika fanlari doktori,
professor, “Turon” FA akademigi
Tel.: +998 90 321-61-32
e-mail: marguba@gmail.com

Annotatsiya. Refleksiya lotincha “reflexio” so‘zidan olingan bo‘lib, “sirtdan nazar”, “orqaga nazar” kabi ma’nolarni anglatadi. Refleksiya shaxsning o‘z-o‘zini anglashiga qaratilgan fikrlash jarayoni bo‘lib, o‘z his-tuyg‘ulari, ichki imkoniyatlari, ongli ravishda sodir etiladigan xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholash, natijada esa keyingi harakatlarning maqbul strategiyasini qabul qilishi uchun zamin vazifasini o‘taydigan xulosalar chiqarish hodisasidir. Refleksiya bu o‘qituvchining o‘z faoliyati va sodir etadigan o‘quv, tarbiyaviy va ijtimoiy xatti-harakatlariga baho berishigina emas, balki o‘zini boshqalar (o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar) qanday qabul qilayotganlarini aniqlab olish imkonini beruvchi xususiyatdir. O‘z-o‘zini refleksiv tahlil eta oladigan o‘qituvchi-pedagog ongli ravishda takomillashib boradi, o‘zi tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni ham mukammallashtirib boradi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik jarayon, refleksiya, shaxs, his-tuyg‘ular, xatti-harakat, refleksiv tahlil, kreativlik.*

Annotation. Reflection is derived from the Latin word "reflexio", which means "looking from the surface", "looking back". Reflection is a thinking process aimed at self-awareness of a person, in order to correctly assess his feelings, inner possibilities, consciously performed actions, and as a result, to adopt an optimal strategy for further actions. it is the event of making conclusions that serves as a ground. Reflection is not only a teacher's assessment of his own activities and educational, educational and social behavior, but also allows him to determine how he is perceived by others (students, parents, colleagues). is a feature. A teacher-pedagogue who is capable of self-reflexive analysis will consciously improve and improve the pedagogical processes that he organizes.

Keywords: *pedagogical process, reflection, personality, emotions, behavior, reflexive analysis, creativity.*

Аннотация. Отражение происходит от латинского слова “reflexio”, что означает “взгляд с поверхности”, “оглядываясь назад”. Рефлексия – это мыслительный процесс, направленный на самосознание человека, с целью правильной оценки своих чувств, внутренних возможностей, осознанно совершаемых действий и, как следствие, принятия оптимальной стратегии дальнейших действий. это служит основанием. Рефлексия - это не только оценка учителем своей собственной деятельности и учебного, учебного и социального поведения, но и позволяет ему определить, как его воспринимают окружающие (учащиеся, родители, коллеги). Учитель-педагог, способный к саморефлексивному анализу, будет сознательно совершенствовать и совершенствовать организуемые им педагогические процессы.

Ключевые слова: *педагогический процесс, рефлексия, личность, чувства, поведение, рефлексивный анализ, творчество.*

KIRISH

Jamiyatdagi ilm-fan taraqqiyoti axborotlar oqimining kengayishi, globallashuv jarayonlari, o‘z navbatida, ta’lim sohasida ham o‘ziga xos islohotlarni taqozo etmoqda. Jumladan, ta’lim jarayoni tashkilotchilari bo‘lmish o‘qituvchilar faoliyatida ham muntazam izlanishlar olib borish, kreativlik davr talabiga aylanib bormoqda. Bo‘lg‘usi pedagoglarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarlicha bilimga ega bo‘lishi bilan birga mulohazakorligi, pedagoglik va psixologlik mahorati, tadqiqot va izlanishlar asosida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi barobarida milliy ta’lim tizimiga tatbiq etilayotgan innovatsiyalar, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini o‘zlashtirgan bo‘lishlari qatorida refleksiv mahoratga ham ega bo‘lmoqlari talab etiladi. Xo‘sh, refleksiya, refleksiv mahorat va refleksivlik nima o‘zi? Refleksiya lotincha “reflexio” so‘zidan olingan bo‘lib, “sirtdan nazar”, “orqaga nazar” kabi ma’nolarni anglatadi. Refleksiya shaxsning o‘z-o‘zini anglashiga qaratilgan fikrlash jarayoni bo‘lib, o‘z his-tuyg‘ulari, ichki imkoniyatlari, ongli ravishda sodir etiladigan xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholash, natijada esa keyingi harakatlarning maqbul strategiyasini qabul qilishi uchun zamin vazifasini o‘taydigan xulosalar chiqarish hodisasidir.

Refleksiv mahoratga ega bo‘lish natijasida o‘qituvchi bajarishi lozim bo‘lgan barcha o‘quv, tarbiyaviy, ijtimoiy vazifalarining ko‘lami va darajasini bilib oladi. O‘zi uchun o‘quvchilarga, ota-onalarga ijobiy ma’noda ta’sir etuvchi faoliyat mexanizmini shakllantiradi. Dars jarayonlarini tashkil etishda o‘quvchilarning talablari asosida shakllana boradigan ish tajribasiga ega bo‘ladi.

Demak, aytishimiz mumkinki, refleksiya bu o‘qituvchining o‘z faoliyati va sodir etadigan o‘quv, tarbiyaviy va ijtimoiy xatti-harakatlariga baho berishigina emas, balki o‘zini boshqalar (o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar) qanday qabul qilayotganlarini aniqlab olish imkonini beruvchi xususiyatdir. O‘z-o‘zini refleksiv tahlil eta oladigan

o‘qituvchi-pedagog ongli ravishda takomillashib boradi, o‘zi tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni ham mukammallashtirib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogik faoliyatni tashkil etish hamda pedagogning kasbiy rivojlanish tizimida refleksiyaning o‘rni muhim ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda bayon qilingan.

Ko‘p hollarda inson o‘z-o‘zini refleksiv tahlilga tortar ekan, u o‘zining yangi imkoniyatlari va qirralarini kashf etib boradi. Ammo zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo‘lmagani uchun mazkur imkoniyatlar yuzaga chiqmaganligini anglaydi. Inson o‘z tafakkuri va tasavvurining yangi tashkil etuvchilarini anglab oladi. Bunday tashkil etuvchilarga hal etilishi ko‘zda tutilgan, ammo hal etilmagan vazifalarni saralash, fikrlashda nomuhimdan muhimga intilish, atrofdagi narsa va hodisalarning yangi qirralarini anglash, mulohazalarni ramzlar vositasida olib borish kabi psixologik xususiyatlar kiradi. Xususan, P.Y. Galperin, V.L. Danilov, B.D. Elkonin kabi olimlar insondagi refleksiya hodisasida ishtirok etadigan barcha fikriy va psixologik xatti-harakatlar orasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlashadi. Mazkur farazning isboti sifatida o‘tkazilgan so‘rovlarda inson o‘z-o‘zini tahlil etar ekan, o‘rganish, tanish, bilish, anglash, idrok etish, fikrlash, mulohaza yuritish, xulosa yasash va baho berish kabi psixologik va intellektual hodisalarning hammasi doimiy ketma-ketlikda kechishini, shuningdek, ushbu intellektual jarayonlardan bittasining yetarli darajada shakllanmaganligi boshqa psixologik xususiyatlar rivojiga to‘sqinlik qilishi mumkinligi ta’kidlanadi (Гальперин П., 1999: 65-69).

S.V. Dmitriyev refleksiv qobiliyatning shakllanishini asosan quyidagi bosqichlarda kechadi deb hisoblaydi:

- mavjud vaziyatni baholash bosqichi (ushbu bosqich, deyarli, barcha hollarda sodir bo‘lib turgan hayotiy vaziyatning inson ongida aks etishi bilan kechadi: bu bosqichda inson o‘zi sodir etayotgan xatti-harakatlar zaruriy natijaga erishish uchun yetarli emasligini anglaydi. Navbatdagi bosqichda o‘zining ishtirokida vujudga kelgan hayotiy (ba’zan ziddiyatlar) vaziyatga sabab bo‘ladigan omillarni ongli ravishda izlab boshlaydi (bunda inson ushbu vaziyatning kelib chiqishiga zamin yaratgan voqea-hodisalar, o‘z ruhiy holati va tashqi muhit faktorlarini tahlil qiladi); keyingi bosqichni shartli ravishda “vaziyatdan chiqib ketish bosqichi” deb atash mumkin (unda inson yuzaga kelgan vaziyatni yumshatish uchun o‘z oldiga vazifa qo‘yadi); so‘nggi bosqich rejalar belgilash bosqichidir. Ushbu bosqichda o‘z-o‘zini izchil va to‘liq tanqidiy tahlil qilgan inson o‘z oldiga qisqa muddatli reja qo‘yadi va mazkur reja asosida o‘z faoliyatini qayta yo‘lga qo‘yadi (Donayeva Sh., 2022: 95).

Har bir bosqich muayyan bir qaror chiqarish va uni amalga oshirish bo‘yicha vazifa belgilash bilan kechadi. Bunda subyekt o‘z imkoniyatlarini, qo‘yilgan vazifalarni bajarishda intellektual va jismoniy resurslari yetish-yetmasligining tahlili

mulohaza qilinadi va refleksiya ichida refleksiya hodisasini sodir etadi. Xulosa qilish mumkinki, refleksiya bu shaxsning intellektual rivojlanishi bilan ham bog‘liq jarayon bo‘lib, psixologik ahamiyatga ega bo‘lgan aniq, izchil harakatlar ketma-ketligidan iborat pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan hodisadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Refleksiya muammosi bir vaqtning o‘zida ham falsafa, ham pedagogika, ham psixologiya sohasida keng tadqiq etiladi. Ushbu sohalar turlicha bo‘lishiga qaramasdan, refleksiyadan foydalanishning mohiyati har birida, deyarli, bir xil izohlangan. Emmanuel Kant qarashlariga ko‘ra, “refleksiya shaxsning o‘z bilish va anglash qobiliyatini muntazam tadqiq qilishi natijasida shakllanib boradigan xususiyati bo‘lib, uning darajasi insonning anglash qobiliyati va intellekt darajasiga bog‘liq jarayondir”. Gegel falsafasida esa refleksiya shunday talqin etiladi: “fikrdan fikr tug‘ilsa va inson bu hodisani ongli ravishda idrok etsagina o‘ziga nisbatan tanqidiy va tahliliy munosabatda bo‘la oladi”. Faylasufning fikricha, aynan shu hodisa refleksiyani tug‘diradi va xuddi shu taxlit hosil bo‘lgan refleksiya ikki turga bo‘linadi. Bular:

1. Nazariy refleksiya;
2. Amaliy refleksiyadir.

Nazariy refleksiya insonga o‘z hayotida, faoliyatida va botiniy his-tuyg‘ularida paydo bo‘lgan muammolarga mulohazalar yordamida yondashuvni anglatadi. Mazkur mulohazalar yordamida inson tasavvurdagi muammolarning haqiqatga qay darajada yaqinligini aniqlab oladi va shu asosda qarorlar qabul qiladi. Gegel fikricha, “nazariy refleksiya shaxsni o‘zlikni anglash tushunchasiga yaqinlashtiradi va bu esa, o‘z navbatida, hayotda uzoq muddatli strategiyani belgilashda katta ahamiyat kasb etadi”.

Amaliy refleksiya insonning mukammallik sari intilishidir. Inson fikrlayotganini idrok etsagina fikrlayotgan bo‘ladi. Hayotdagi har qanday orzu, maqsad, mukammallikka intilishning zamirida qiziqish (motivatsiya) yotadi. Inson motivatsiyaga ega bo‘lishi uchun fikrlashi va ushbu fikrlarining o‘z holatiga qanchalik yaqin ekanligini mulohaza qilishi lozim bo‘ladi. Xuddi shu mulohaza insonga o‘z amaliy faoliyatiga “sirtdan qarash” uchun sharoit yaratadi. Refleksiya ongni tahlil qiladi: inson tasavvuridagi mukammallik hayotda erishish mumkin bo‘lgan mukammallik bilan farqlimi yoki tafovutsiz ekanligini mulohazalar yordamida aniqlab oladi.

Zamonaviy falsafa fani refleksiv mahoratning ikki xil ko‘rinishini e’tirof etadi. Bular: Ekstrovert refleksiya va Introvert refleksiya.

Ekstrovertlik insonning tashqi muhit bilan muloqotga kirishishga intilishini va o‘zini tashqi muhitning bir qismi deb bilgani holda hayotini tashqi muhit omillarisiz tasavvur qila olmaslik holatini anglatadi. Insonda ekstrovert refleksiya hodisasi kechganda u o‘z hayotidagi muammolarga obyektiv qaraydi, har bir vaziyatni muayyan

bir sababning oqibati deb hisoblaydi. Shuning uchun bunday refleksiv mahoratni o‘zida shakllantirgan inson o‘z muammolarini juda jiddiy hisoblamaydi.

Introvert refleksiya esa bunga butunlay teskari ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bunda inson tashqi muhit omilini unutadi. O‘ziga “sirtdan nazar solar” ekan, yo‘l qo‘ygan xatolari, faoliyatidagi kamchilik va nuqsonlar faqat xarakteridagi ojizliklar va zaifliklar tufayli kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Introvert refleksiyaga ega bo‘lgan inson o‘zini subyekt sifatida yagona deb faraz qiladi, o‘z fikri va faoliyatining ahamiyati jamiyat uchun albatta kerak degan tasavvurda yuradi. Shuningdek, o‘zidagi har bir nuqson jamiyatning qaysidir kamchiligining rivojlanib ketishiga sabab bo‘ladi, deb hisoblaydi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa fani talqinidagi refleksiya insonning ertangi kunini yaxshiroq qurish maqsadida o‘zini, his-tuyg‘ularini, faoliyatini ongli ravishda tahlil etib borishi va shu asosda uzoq muddatli strategiyani o‘z ichiga olgan rejalar qurishini ta’min etadigan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologiya fanida refleksiya insonning o‘z ichki imkoniyatlarini o‘rganishi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Refleksiya insonning psixologik imkoniyatlarini, ichki ehtiyojlarini hamda o‘z faoliyatini amalga oshirish muhimligini, tashqi muhit bilan o‘zaro aloqadorlikdagi o‘rnini to‘g‘ri baholay olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda refleksiyaga insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish usuli sifatida qaralib, psixologik tadqiqotlarda ham yetakchilik qiladi. Refleksiv ko‘nikmalarga ega bo‘lgan inson o‘z xatti-harakatini, o‘z faoliyatini boshqara oladi, o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qila oladi hamda o‘z-o‘ziga obyektiv baho bera oladi. Shu nuqtayi nazardan psixologiyada refleksiya muammosi uch yo‘nalishda o‘rganiladi.

1. Refleksiv psixologik tadqiqotlar sohasida;

2. Shaxs intellektual rivojlanish tizimida refleksiyaning o‘rnini aniqlash metodikasi;

3. Shaxs fikrlash jarayoni hamda kommunikativ faoliyatida refleksiyaning o‘rnini aniqlash.

Insonning muloqotga kirishuvi kommunikativ aloqa o‘rnatishi, har taraflama manfaatli munosabatlar shakllanishi uchun mazkur aloqalar hamda munosabatlar ishtirokchilari yetarli darajada refleksiv mahoratga ega bo‘lishlari lozim. Shu bois psixologik refleksiyaning pedagogik o‘ziga xosliklarini va ushbu hodisaning ta’lim jarayonidagi rolini o‘rganish yetakchi soha hisoblanadi. Psixologik refleksiyaning pedagogik ahamiyatini o‘rganish insonda refleksiv xususiyatlarning rivojlanish qonuniyatlari va shart-sharoitlarini, refleksiv mahoratni shakllantirib borish usullarini, ko‘p o‘lchamli hamda keng qamrovli ongni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotida o‘z o‘rnini aniqlab olish kabi bilimlarni o‘rganib borishning izchil hamda davomli jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Refleksiya tushunchasining pedagogika fani nuqtayi nazaridan talqin etilishi. Demak, pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda “refleksiya bu subyektning o‘z amaliy faoliyatini tahlil etishi va mazkur tahlil natijalari asosida o‘z kasbiy iqtidorini baholashidir”. S.X. Assadulina, A.A. Bodalevalarning fikriga ko‘ra, refleksiya “o‘qituvchi-pedagogning o‘z qobiliyati, his-tuyg‘ulari va ta’lim jarayoni ishtirokchilariga munosabatlarining ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rsatib beruvchi mezonlar majmuasi bo‘lib, bu qobiliyatning yuqori darajada bo‘lishi subyektning kasbiy jihatdan mukammallikka erishishini ta’min etadi”. Demak, refleksiya o‘z faoliyatini yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolni nazarda tutgan rejalar asosida qurishga intilgan har bir shaxs uchun zarur bo‘lgan xususiyatdir (Bodaleva A., 2002: 83).

Refleksiv qobiliyatning inson zakovati, tushunchasi, voqea-hodisalarni idrok etish darajasiga bog‘liq ekanligini o‘tgan asr psixologlari ham o‘z tadqiqotlarida isbotlab bergan. Inson o‘zi bilgan, anglagan va idrok etgan instansiya va subyektlar doirasida fikr yuritadi, binobarin, refleksiv qobiliyat (bizning tadqiqotlarda refleksiv mahorat) o‘sha anglangan, idrok etilgan subyektlar doirasining qanchalik kengligi inson refleksiv mahoratining darajasini belgilab beradi; “pedagog-talaba” munosabatlarining samarali tarzda davom etishini ta’minlab beradigan pedagogik refleksiya (psixologik refleksiyadan farqli ravishda) olingan bilim, orttirilgan ko‘nikma va tajribaning darajasiga bog‘liqdir; pedagog refleksiv tarzda fikrlar ekan, shundagina kasbiy mahoratining yo‘naltirilgan obyekti, ya’ni talabaning bilimi, ko‘nikmasi, anglash va idrok etish darajasiga qarab o‘z shaxsiy va kasbiy faoliyatining darajasini baholaydi; “pedagog-talaba” munosabatlaridagi refleksiya o‘rganilayotgan dars mavzulari, dars turi va fanning mazmun jihatdan murakkablashib borishiga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchandir”.

“Pedagogikadagi ushbu ko‘rinishli refleksiya, ya’ni refleksiya harakatini sodir etayotgan subyekt ongida boshqa insonlarning (tadqiqotimizda talabalarning) baholovchi omil sifatida namoyon bo‘lishi o‘qituvchi-pedagogdan mustahkam shaxsiy pozitsiyaga ega bo‘lishni, intellekti va faoliyatining mohiyati yo‘naltirilgan o‘quvchilarning bilimi, idrok etish qobiliyati hisoblanadi”. Mulohazakorligi xolis va shaffof holda tahlil etilishini talab etadi. Shunday bo‘lgan taqdirdagina biz o‘qituvchi-pedagogdagi sodir bo‘ladigan refleksiya hodisasi to‘g‘ri natija beradi, deb ayta olamiz.

B.D. Elkoninning ta’kidlashicha, “pedagogning pozitsiyasi quyidagilarga asoslangan bo‘ladi:

- o‘qituvchining talaba shaxsiga mutaxassis va inson sifatida yondashuvi (ya’ni tarbiyaviy va o‘quv jarayonlarida o‘qituvchi uchun talabaning to‘liq bilim va metodikaga ega bo‘lmagan mutaxassis sifatidagi huquqlari, bilim oluvchi sifatida manfaatlari hamda alohida xarakterga ega bo‘lgan shaxs sifatidagi zaruriy tarbiya usullariga muhtojligi); o‘qituvchining refleksiv xatti-harakatni sodir etishi uchun o‘zini

shaxs va mutaxassis sifatida to‘liq anglashi (ya’ni o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayoniga shaxs va mutaxassis sifatida yondashuvi, har bir o‘quvchi ta’limi va tarbiyasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarga tayyor turishi)”. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogikada refleksiyaning namoyon bo‘lish turlari ikkita, ya’ni jarayonli va shaxsiy mazmundagi refleksiya.

- jarayonli mazmundagi refleksiya dars jarayonlari uchun qabul qilingan o‘quv materiallari va o‘rganilayotgan fanlar mundarijasi ta’lim oluvchining imkoniyatlariga muvofiq kelishi hamda uning ko‘nikib borishini nazarda tutadi. Mazkur refleksiyada talabada paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni hisobga olishi, uning bu qiyinchiliklarni yengish yo‘lidagi xatti-harakatlarini rag‘batlantirib turishi lozimligi ko‘zda tutiladi.

- refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati natijasini tahlil qilishi, o‘z faoliyatiga chetdan nazar solishi, ayniqsa, o‘quvchi ko‘zi bilan o‘z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi.

Pedagogika fani sohasida refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning muhimligi quyidagilarda ko‘rinadi:

Birinchidan, pedagogika sohasida refleksiya o‘qituvchi amaliy ko‘nikmalari shakllanganlik darajasini aniqlash mezonini jamlagan muhim omil sifatida qaraladi; ikkinchidan, refleksiya bir tomonlama xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish asosida o‘z faoliyatini o‘quvchi ko‘zi bilan qarab tahlil qiladi; uchinchidan, o‘quvchilar jamoasidagi muhit, amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar, o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatidagi faollik darajasi o‘qituvchilar refleksivlik ko‘rsatkichlarini belgilab beruvchi mezon bo‘ladi; to‘rtinchidan, refleksivlikni zamonaviy ta’lim tizimining har bir bosqichida qo‘llash mumkin va ilg‘or pedagogik texnologiyalar, uslubiy innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin; beshinchidan, refleksiv ko‘nikmalar o‘qituvchining shaxsiy tavsifga ega bo‘lgan faoliyati hisoblangani tufayli o‘zining dunyoqarashi va pedagogik fikrlaridan kelib chiqib o‘z-o‘zini tahlil qilish uchun imkon beradi.

Refleksiv ta’lim texnologiyalari o‘ziga xos bo‘lib, uni amalga oshirish quyidagi algoritmik harakatlar tarzida tashkil etiladi:

I. Refleksiya obyekti va dars mashg‘ulotining refleksiya amalga oshiriladigan vaqtini aniqlash. Shu o‘rinda refleksiya obyekti sifatida ta’lim jarayonining umumiy va juz’iy maqsadlari; o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan asosiy tushunchalar va ta’lim mazmuni; foydalaniladigan ta’lim metodlari; egallanadigan ko‘nikmalar, bilimlarning hayot bilan bog‘liqligi; shaxsning ichki olami va kasbiy sifatlari sohasida o‘zgarishlarni idrok etishi va shu kabilar belgilanishi mumkin.

II. O‘z bilish sohasini tahlil etish va kuzatib borishning individual mexanizmiga ega bo‘lish.

III. Kelgusidagi pedagogik munosabatlarning samarali tashkil etilishi uchun refleksiyaning natijalari muhimligiga asosiy urg‘u berish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayoni ishtirokchilaridan umumiy xarakterda bo‘lgan pedagogik va shaxsiy sifatlarni talab etadi. Ya’ni refleksiya ikkiyoqlama bo‘lgandagina ijobiy natija beradi; refleksiv texnologiyalardan foydalanish jarayoni ishtirokchilardan obyektivlikni, xolislikni va shaffof munosabatlarni talab etadi. Bu esa baholash va nazorat tizimini ochiq olib borishni, binobarin, ta’lim oluvchilar orasida sog‘lom raqobat muhitining yaratilishini ta’minlaydi; dars jarayonida o‘ziga xos “qaytarma aloqa”ning yo‘lga qo‘yilishi ta’lim oluvchi orasida kommunikativ bahs-munozaralarning tashkil etilishiga xizmat qiladi; refleksiv ta’lim texnologiyalarida dars jarayonida o‘qituvchining monologik pozitsiyadan muloqot qilish pozitsiyasiga o‘tishi hodisasi sodir bo‘ladi.

Refleksiv ta’lim texnologiyalari o‘zaro uyg‘unligiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o‘ziga xoslik refleksiv ta’lim texnologiyalarining turli mezonlar va xususiyatlar bo‘yicha tasniflana olishi bilan bog‘liqdir. Bu hol bizni refleksiv ta’lim texnologiyalarining shakl va turlari haqida mulohaza yuritishga undaydi. Refleksiv texnologiyalardan foydalanish davomiyligiga ko‘ra turlari, refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanuvchilariga ko‘ra, refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadlariga ko‘ra, refleksiv ta’lim texnologiyalarini amalga oshirish shakliga ko‘ra turlari farqlanadi.

Shunday qilib, refleksiv ta’lim texnologiyalari vaqt davomiyligiga ko‘ra, quyidagi turlarga bo‘linadi: situativ (muayyan vaqtning o‘zidagi) ta’lim texnologiyalari; retrospektiv ta’lim texnologiyalari; perspektiv ta’lim texnologiyalari.

Vaziyatli (situativ) ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarni, muammolarini ijobiy hal etishni nazarda tutadi. Garchi o‘qituvchi-pedagog zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda talabalarning qisman yoki to‘liq mustaqil ta’lim olishlariga erishsa-da, ayrim vaziyatlarda uning vaziyatga aralashuvi shart bo‘lib qoladi. Shu sababdan OTM talabalari dars jarayonlarida situativ ta’lim texnologiyalaridan foydalanishlari uchun bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lgan quyidagi harakatlarni amalga oshirishlari talab etiladi.

1. Pedagogik masalani keltirib chiqargan faktni anglab olishi.

2. Mazkur masala negizida paydo bo‘lgan pedagogik vaziyatni chuqur his qilishi va uning har bir detallarini tasavvur qila olishi.

3. Pedagogik masalaning xarakteri, kelib chiqish sabablarini, uning tub negizini aniqlash orqali pedagogik vaziyatni tahlil etish.

4. Mazkur pedagogik vaziyat barqarorlashtirilmasa, yana kelib chiqishi mumkin bo‘lgan boshqa pedagogik masalalarni to‘liq tasavvur etish va ularga tayyor turish.

5. Pedagogik vaziyatni barqarorlashtirishning usuli bo‘yicha qaror qabul qilish.
6. Qabul qilingan qarorni refleksiv tahlil etish.

Retrospektiv ta’lim texnologiyasi retrospektiv refleksiyaga asoslanadi. Retrospektivlik fransuzcha “retro” (o‘tmish) va “spektiv” (qarash) so‘zlarining umumlashmasidan hosil bo‘lgan bo‘lib, uning mohiyati atalishidan ham ma’lum. Retrospektiv ta’lim talabaning kechagi kunni (ta’limiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, o‘tgan mavzularni) konstruktiv tahlil etishini va bugungi kun bilan bog‘lay olishini nazarda tutadi. Retrospektiv ta’lim texnologiyasi talabaning shaxs sifatidagi sifatlariga, eng birinchi galda xotirasiga bog‘liq, qolaversa, retrospektiv ta’limning mavjud vaziyatning ijobiy tomonga o‘zgarishdagi ahamiyati yuksakdir. Unutmaslik lozimki, retrospektiv refleksiv ta’lim mexanik tarzda orqaga qarash emas, mavjud voqelik, vaziyat, ta’limiy va nota’limiy masalalarning yechimini izlash maqsadida, kechagi kunning intensional obyektlarini umumlashtirish va birlashtirish natijasida muhim qarorni qabul qilishni ta’minlovchi hodisadir.

Retrospektiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchiga bugungi o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar doirasini uzviylik tamoyiliga ko‘ra o‘tgan darslarda o‘zlashtirilgan bilimlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ushbu ta’lim texnologiyasidan darsning turli qismlarida turli xildagi ta’lim vositalari, ta’lim metodlari bilan uyg‘un holda qo‘llash imkoniyati mavjuddir. Bunday uyg‘unlik talabalar bilim doirasini ularning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshirish imkonini beradi.

Perspektiv ta’lim texnologiyalari. Refleksiyaning reproduktiv xususiyatlari talaba nafaqat “kechagi kun”ning ta’limiy va nota’limiy muammolarini tahlil qilishi asnosida, balki kutilayotgan vaziyatdagi reproduktiv muammolarni hal etishda ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni, talabaning shaxs sifatidagi e’tibori “o‘tgan kun”, “hozir” va “ayni daqiqada”gi emas, ertangi kunga ham qaratilgan bo‘lishi lozim. Refleksiv nazar va refleksiv tasavvur vositasida hosil qilingan virtual manzara aynan perspektiv refleksiya natijasida amalga oshiriladi.

Jamoaviy refleksiya davomida o‘quv guruhi (yoki sinf) ta’lim oluvchilari darsda qo‘yilgan maqsadlarga qanchalik darajada erishilganligini kommunikativ tarzda muhokama qiladilar. Bu refleksiv texnologiyaning ahamiyati guruhda (yoki sinfda) ta’lim oluvchilarning o‘zaro munosabatlarini shaffoflashtiradi va kommunikativ aloqalarning mustahkamligini ta’minlaydi. Jamoaviy refleksiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad guruhdagi (sinfdagi) har bir ta’lim oluvchining faollik darajasini oshirish, darsni tashkil etish va o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan maqsadga erishishda har bir ta’lim oluvchi o‘z hissasini ongli ravishda anglab olishini ta’minlashdan iboratdir. Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonining asosiy maqsadi pedagoglarning o‘z faoliyatini muntazam taftish qilish asosida yangiliklar bilan boyitishi, yangi faoliyat

turlariga nisbatan motivatsiya hosil qilishi, o‘z faoliyatini chetdan tahlil qilishi hamda obyektiv baholashiga erishishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Donayeva Sh. (2022) Refleksiya, refleksivlik, refleksiv mahorat tushunchalari pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarining o‘rganish obyekti sifatida // “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish muammolari. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya.
2. Гальперин П.Я. (1999) Введение в психологию: Учебное пособие для вузов. – Москва: Книжный дом “Университет”. – 332 с.
3. Барышникова, Н. А. (2016). Рефлексивное обучение в образовательном процессе: теория и практика. – Москва.
4. Bodaleva A.A. (2002) Педагогические условия формирования рефлексивной позиции старшеклассников в учреждении дополнительного образования детей: дис. канд. пед. наук / Е.Л. Ерина. – Магнитогорск. – 199 с.
5. Mirqosimova M. (2024) Talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish omillari // “Ma’rifatparvar ajdodlarimiz merosi – milliy ta’lim-tarbiya asosi” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent.
6. Khamraev, K. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Tashkent: Fan va texnologiya.
7. Jorayev, I. (2021). Refleksiv ta’lim: nazariya va amaliyot. – Samarqand.
8. Shodmonov, D. (2019). Pedagogik refleksiya va ta’lim jarayonidagi roli. – Toshkent.
9. Alimova, B. (2022). Ta’limda refleksiv yondashuvlar. – Toshkent.
10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.

REFERENCES:

1. Donayeva Sh. (2022) Refleksiya, refleksivlik, refleksiv mahorat tushunchalari pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarining o‘rganish obyekti sifatida // “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish muammolari. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. (In Uzbek)
2. Galperin P.Ya. (1999) Vvedenie v psixologiyu: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – Moskva: Knijniy dom “Universitet”. – 332 s. (In Russian)
3. Barishnikova, N. A. (2016). Refleksivnoe obuchenie v obrazovatelnom prosesse: teoriya i praktika. – Moskva. (In Russian)
4. Bodaleva A.A. (2002) Pedagogicheskie usloviya formirovaniya refleksivnoy pozisii starsheklassnikov v uchrejdenii dopolnitelnogo obrazovaniya detey: dis. kand. ped. nauk / E.L. Erina. – Magnitogorsk. – 199 s. (In Russian)
5. Mirqosimova M. (2024) Talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish omillari // “Ma’rifatparvar ajdodlarimiz merosi – milliy ta’lim-

tarbiya asosi" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Toshkent. (In Uzbek)

6. Khamraev, K. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Tashkent: Fan va texnologiya. (In Uzbek)

7. Jorayev, I. (2021). Refleksiv ta'lim: nazariya va amaliyot. – Samarqand. (In Uzbek)

8. Shodmonov, D. (2019). Pedagogik refleksiya va ta'lim jarayonidagi roli. – Toshkent. (In Uzbek)

9. Alimova, B. (2022). Ta'limda refleksiv yondashuvlar. – Toshkent. (In Uzbek)

10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.

POLIFUNKSIONAL YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IQTISODIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

METHODOLOGY FOR FORMING ECONOMIC CONCEPTS IN PRESCHOOL CHILDREN BASED ON A MULTIFUNCTIONAL APPROACH

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ МНОГОФУНКЦИОНАЛЬНОГО ПОДХОДА

Quchqorova Nargiza Mamajonovna
Oriental universiteti
Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasi professori
Tel.: +998 90 162-50-50
E-mail: kuchqarova06071979@gmail.com

Allaberganova Nargiza Polvannazirovna
Urganch Davlat Universiteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
Tel.: +998 97 605-56-55
E-mail: allaberganova.nargiza@urdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola polifunksional yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni, maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy tushunchalarini shakllantirish ko'rsatkichlari, bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ko'nikmasi va kommunikativ, iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish, MTT va oila budjeti tuzilishi, iqtisodiy tushunchalarning shakllanishini iqtisodiy faoliyat natijasida hosil bo'ladigan axloqiy va iqtisodiy fazilatlar, tejamkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik bilan halol munosabatlarning shakllanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari bolalarning oila xo'jaligi ishlarida qatnashishi, o'zining ortiqcha talablarini tiyishga, isrofgarchilikka qarshi kurashga o'rgatish, bolalarga iqtisodiy tushunchalar berish asosida tarbiyalash va amaliyotining holatini tahlil qilish, bolalar o'zlarining barcha daromadlarini hisobga olish, xarajatlarni rejalashtirish masalalari yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish ishlarini tashkil etish an'anaviy va polifunksional yondashuv asosida tahlil qilingan hamda MTT ta'lim va tarbiya jarayonida iqtisodiy tushunchalarni rivojlantirish uchun pedagogik texnologiyalar yordamida loyihalashtirishni amalga oshirish, o'yinlarni tashkil qilish haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *iqtisod, madaniyat, oila budjeti, iqtisodiy tajriba, iqtisodiy muammo, didaktik o'yin, iqtisodiy jumboqlar.*

Annotation. This article is based on a multifunctional approach to the process of mastering economic concepts for preschool children, indicators of the formation of economic concepts of preschool children, the development of the child's skills and communicative, economic competencies in communication with adults and peers, the structure of the MTT and family budget, the formation of economic concepts moral and economic qualities, information is given about the formation of honest relationships with initiative. In addition, the issues of children's participation in the work of the family farm, teaching to restrain their excessive demands, fight against waste, analyzing the state of their upbringing and practice on the basis of giving economic concepts to children, accounting for all their income, planning expenses are covered. The organization of the work on the formation of economic concepts in preschool children was analyzed on the basis of a traditional and multifunctional approach, and information was presented on the implementation of Design, Organization of games using pedagogical technologies for the development of economic concepts in the educational and educational process of MTT.

Keywords: *economics, culture, family budget, Economic experience, economic problem, didactic game, economic puzzles.*

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс усвоения дошкольниками экономических понятий на основе полифункционального подхода, показатели формирования экономических понятий дошкольников, развитие умений и коммуникативных, экономических компетенций ребенка в общении со взрослыми и сверстниками, структура МТТ и семейного бюджета, формирование экономических понятий как морально-экономических качеств, формирующихся в результате хозяйственной деятельности, бережливости, предпринимательства., даны данные о формировании честных отношений с инициативой. Кроме того, освещаются вопросы участия детей в хозяйственной деятельности семьи, обучения сдерживанию собственных излишних требований, борьбе с расточительством, анализа состояния воспитания и практики на основе предоставления детям экономических понятий, учета детьми всех своих доходов, планирования расходов. Проанализирована организация работы по формированию экономических понятий у детей дошкольного возраста на основе традиционного и полифункционального подхода, а также представлена информация о реализации проектирования, организации игр с использованием педагогических технологий для развития экономических понятий в процессе обучения и воспитания МТТ.

Ключевые слова: *экономика, культура, семейный бюджет, экономический опыт, экономическая проблема, дидактическая игра, экономические загадки.*

KIRISH

O‘zbek xalqi azaldan oila ma’naviyatiga alohida e’tibor qaratgan. Hozirgi kunda ma’naviy merosdan foydalanib, mamlakatimiz talablariga javob beradigan kelajak avlodlarga ta’lim va tarbiya berish har bir o‘zbek oilaning muqaddas burchidir. Bu burchni sharaf bilan ado etish oilada kelajak avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlari, an’analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, o‘ziga xos ijobiy tarixini singdirish, undan faxrlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. O‘z oilasi, ota-onasidan, avlod-ajdodlari, tarixidan g‘ururlangan inson o‘z o‘lkasi, tili, dini, millati, xalqi, madaniyatidan g‘ururlanishi, uni asrab-avaylab, dunyoga ko‘z-ko‘z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada maktabgacha yoshdagi bolalarning ongiga yoshlikdan boshlab “Sen ulug‘ mutafakkirlar, allomai zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning avlodisan”, “Sen tarixi boy, ulug‘ millatning farzandisan”, “Bizning mamlakat dunyoda tabiati eng go‘zal, boy diyor” “O‘zbek xalqi boy ma’naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq”, kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim. Xususan, Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartida maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish masalasi ko‘rsatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Polifunksional yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtirish, birinchi navbatda, axloqiy va mehnat tarbiyasini takomillashtirish usullaridan biridir. Bugungi kunda ushbu jarayonni to‘g‘ri amalga oshirishga imkon beradigan zamon talablariga javob beradigan iqtisodiy ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bolani iqtisodiy voqelik dunyosi bilan tanishtirish qiyin va ayni paytda muhim muammolardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy tarbiyasi nafaqat bolani haqiqiy hayotga yaqinlashtiradi, uni nima bo‘layotganini boshqarishga o‘rgatadi, balki shaxsiyatning ishbilarmonlik fazilatlarini shakllantiradi, bu esa MTT va maktab o‘rtasidagi ta’limda uzluksizlikni ta’minlaydi. A.S. Makarenkoning fikriga ko‘ra, erta yoshdan boshlab bola oilaviy sharoitda kelajakdagi iqtisodiy faoliyatga odatlangan bo‘lishi va halollik, g‘amxo‘rlik, tejamkorlik, mas’uliyat haqida tushunchaga ega bo‘lishi lozim. A.S. Makarenko bolani oila xo‘jaligini yuritish ishlaridan xabardor qilib turish kerakligini uqtirgan edi. Bolalarning oila xo‘jaligi ishlarida qatnashishi, o‘zining ortiqcha talablarini tiyishga, isrofgarchilikka qarshi kurashga o‘rgatadi (Макаренко А.С., 1986). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga iqtisodiy tushunchalar berish asosida tarbiyalash va amaliyotining holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy tushunchalarga doir ta’lim va tarbiya jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning yaxlit nazariyasi yetarli

darajada ishlab chiqilmagan. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida 3-7 yoshli bolalarni aqliy va ma’naviy kamolotida iqtisodiy tushunchalarning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Hozirgi kunda iqtisodiy tasavvuri shakllangan, uzluksiz rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitidagi amaliy faollikka tayyorlangan shaxsni tarbiyalashni talab etadi. Avval iqtisodiy muammolar sun’iy ravishda bolalardan uzoqlashtirilgan va amaliy jarayoni boshlanguncha ulardan chetda qolayotgan bo‘lsa, endi hayotning o‘zi maktabgacha yoshdanoq, bolalarning ehtiyojlari nimaligini, ularni qondirish nima bilan cheklanganligini, tanlab olish doimo cheklangan bir paytda qanday qilib tanlashni bilish talab etiladi. Bola pulning vazifasi, MTT va oila budjeti tuzilishini, mahsulotlar narxi qanday shakllanishi va uning manbalari nimalardan iboratligini aniq tasavvur qilishi lozim. Iqtisodiy tarbiya - maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan, tashkillangan ta’limiy faoliyatdir. Uni amalga oshirish jarayonida bolalar tartibli va samarali iqtisodiyot to‘g‘risida, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish haqida, ishlab chiqarish munosabatlari haqida tasavvurlar majmuini o‘zlashtirib oladilar. Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy tushunchalarning shakllanishini iqtisodiy faoliyat natijasida hosil bo‘ladigan axloqiy va iqtisodiy fazilatlarning, tejamkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik bilan halol munosabatlarning shakllanishini ta’minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarga polifunksional yondashuv asosida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishdek murakkab pedagogik jarayonda faoliyatni tashkil etishning samarali usul, shakl va vositalarini tanlay bilish, ulardan o‘rinli va maqsadga muvofiq holda foydalanish o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

Bolalarning iqtisodiy tushunchalari o‘yin, sayr, mustaqil faoliyat davomida mustahkamlanadi. Ta’limiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan zarur shartlardan biri bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ko‘nikmasi va kommunikativ, iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Tezkor rivojlanish davrida bolalar bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyani yetarli darajada namoyon qilmayapti. Zarur darajada motivatsiya uyg‘otish uchun zamonaviy texnologiyalar, metod va vositalarni to‘g‘ri tanlash lozim. Bolalar o‘zlarining barcha daromadlarini hisobga olgan holda, xarajatlarni rejalashtiradilar, pullarini ota-onalariga berib qo‘yadilar va bergan pullarini ortig‘i bilan oladilar. O‘z pullarini ishonchli bo‘lishi uchun o‘ziga yaqin tutgan kishisini tanlaydilar. O‘quv materiallariga kiritiladigan barcha tushunchalar aniq mazkur mashg‘ulot o‘tayotgan vaqtga kelib bolalar ongida shakllangan lug‘at doirasida bayon qilinishi, bolaning fikrlari iqtisodiyotga kirib boradigan asosiy sohalarni qamrab olishi kerak.

Bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda tarbiyaning mazmun-mohiyatiga e'tibor berilsa, ijobiy pedagogik natijani qo'lga kiritish mumkin bo'ladi. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya orqali bolalar iqtisodiy madaniyatga o'rganishadi. Hayotda, tajribada bilimli va bilimsizning iqtisodiy tarbiyasi barobar emasligini ko'p uchratish mumkin. Bola qanchalik iqtisodiy munosabatlarda qiynalsa, u shunchalik iqtisodiy tushunchalarni ko'proq egallaydi. Bu holat bolaning yosh xususiyatiga bog'liq. Har bir faoliyat jarayonida bola tomonidan egallangan iqtisodiy tushuncha, iqtisodiy qarashlar iqtisodiy tarbiya berishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda iqtisodga tegishli tushunchalarni shakllantirishda uning shakli, mazmuni va uslublarini takomillashtirish alohida o'rinni egallaydi. Bu tarbiyachining pedagogik mahoratiga, bilim saviyasiga, o'z kasbini va bolalarni qanchalik sevishiga bog'liq. Bolalarning faoliyatlar jarayonida olgan iqtisodiy tushunchalari, ularning tushunishida, odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi.

An'anaviy yondashuv	Polifunksional yondashuv
Ta'limiy faoliyatga muayyan qolipga tushirilgan jarayon sifatida qaraladi (o'zining aniq tartib qoidalariga ega)	Polifunksional yondashuv asosida ta'limiy faoliyatda tarbiyalanuvchilarga individual munosabat, uni shaxs sifatida takomillashtirish bo'yicha shaxsiy va pedagogik qo'llab-quvvatlashga qaratiladi
Tarbiyalanuvchilarning rivojlanish jarayoni oldindan o'rnatilgan bo'ladi	Polifunksional yondashuv asosida ta'limiy faoliyat uchun zarur bo'lgan rivojlanish jarayonini oldindan belgilamaydi, balki rivojlanish jarayoni uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish
Barcha uchun umumiy, yagona va majburiy bo'lgan iqtisodiy rivojlanish yo'li belgilanadi	Polifunksional yondashuv asosida har bir tarbiyalanuvchining mavjud salohiyatidan kelib chiqib individual qobiliyatlarini takomillashtirish, shaxs sifatida rivojlanishiga ko'maklashish
Ta'limiy faoliyatning rivojlanish jarayoni oldindan belgilanadi	Polifunksional yondashuv asosida ta'limiy faoliyatda tarbiyalanuvchining rivojlanishiga yordam beruvchi pedagogik ta'sirlarni aniqlashga quriladi
Ta'limiy faoliyatga oldindan belgilangan xususiyatlarga ega shaxsni shakllantirish vazifasi qo'yiladi	Polifunksional yondashuv asosida ta'limiy faoliyatga tarbiyalanuvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, strategik faoliyat qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash tizimi, o'z-o'zini aniqlash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, tadbirkorlik, tashabbuskorlik, ijobiy "men"ini anglash vazifasi qo'yiladi

1-jadval. Polifunksional yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirish ishlarini tashkil bo'yicha yondashuvning qiyosiy tahlili


Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish ishlarini tashkil etishda bir qator usullar qo‘llaniladi (1-jadvalga qarang).

2. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. (2009) Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер.
3. Drapeau Patti. (2014) Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Сиротюк Ф.С. Диагностика одарённости / Учеб.пособие. – Москва: Директ-Медиа. – 1229 с.

5. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. (2013) Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб.пособие. – Киров: АНОО “Межрегинальный ЦИТО”. – 212 с.

6. Corti, G. (2018). Creativity in higher education: What it is and why it matters. New York: Routledge.

7. Robinson, K. (2011). Out of our minds: Learning to be creative. Chichester, UK: Capstone Publishing.

8. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92-96.
https://doi.org/10.1080/10400419.2012.650092

9. Torrance, E. P. (2008). The Torrance tests of creative thinking: Norms-technical manual (4th ed.). Bensenville, IL: Scholastic Testing Service.

10. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention. New York: Harper Collins.

11. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1991). An investment theory of creativity and its development. In R. J. Sternberg (Ed.), The nature of creativity: Contemporary psychological perspectives (pp. 1-28). New York: Cambridge University Press.

12. Amabile, T. M. (1996). Creativity in context: Update to the social psychology of creativity. Boulder, CO: Westview Press.

REFERENCES:

1. Barisheva T.A., Jigalov Yu.A. (2006) Psixologo-pedagogicheskie osnovi razvitiya kreativnosti – SPb.: SPGUTD. (In Russian)

2. Bashina T.F., Ilin E.P. (2009) Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter. (In Russian)

3. Drapeau Patti. (2014) Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

4. Sirotyuk F.S. Diagnostika odaryonnosti / Ucheb.posobie. – Moskva: Direkt-Media. – 1229 s. (In Russian)

5. Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. (2013) Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb.posboie. – Kirov: ANOO “Mejreginalniy SITO”. – 212 s. (In Russian)

6. Corti, G. (2018). Creativity in higher education: What it is and why it matters. New York: Routledge.

7. Robinson, K. (2011). Out of our minds: Learning to be creative. Chichester, UK: Capstone Publishing.

8. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92-96.
https://doi.org/10.1080/10400419.2012.650092

9. Torrance, E. P. (2008). The Torrance tests of creative thinking: Norms-technical manual (4th ed.). Bensenville, IL: Scholastic Testing Service.

10. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention. New York: Harper Collins.

11. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1991). An investment theory of creativity and its development. In R. J. Sternberg (Ed.), The nature of creativity: Contemporary psychological perspectives (pp. 1-28). New York: Cambridge University Press.

12. Amabile, T. M. (1996). Creativity in context: Update to the social psychology of creativity. Boulder, CO: Westview Press.

SHAXSIY KARYERA RIVOJLANISHIDA PERFEKTSIONIZMNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF PERFECTIONISM ON PERSONAL CAREER DEVELOPMENT

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ПЕРФЕКЦИОНИЗМА НА РАЗВИТИЕ ЛИЧНОЙ КАРЬЕРЫ

Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna
Ma'mun universiteti NTM dotsenti, p.f.f.d.
Tel.: +998 91 992-69-69
e-mail: temperament88@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola shaxsiy karyera rivojlanishida perfektsionizmning psixologik ta'sirini chuqur tahlil qiladi. Perfektsionizmning ijobiy jihatlari sifatida yuqori sifatga erishish, o'z imkoniyatlarini to'liq ochish va muvaffaqiyatga bo'lgan intilish ko'rsatiladi. Biroq, maqolada shuningdek, perfektsionizmning salbiy tomonlari, masalan, ortiqcha stress, haddan tashqari qayg'urish va ish unumdorligining pasayishi kabi muammolar keltiriladi. Ushbu jihatlar karyera faoliyatida motivatsiya va shaxsiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Maqolada shuningdek, perfektsionizmni boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan, jumladan, maqsadlarni rejalashtirish, o'z-o'zini motivatsiya qilish va stressni boshqarish strategiyalari. Bu tavsiyalar muammolarni kamaytirishga va kuchli, muvozanatli shaxsiy va karyera rivojlanishiga erishishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *perfektsionizm, shaxs karyerasi, konstruktiv perfektsionizm, destruktiv perfektsionizm, stress va qoniqmaslik, motivatsiya, ish sifati, boshqarish strategiyalari, realistik maqsadlar, ish va dam olish muvozanati.*

Annotation. This article provides a profound analysis of the psychological impact of perfectionism on individual career development. It highlights the positive aspects of perfectionism, such as the pursuit of high quality, the full realization of one's potential, and the drive for success. However, the article also addresses the negative sides of perfectionism, including excessive stress, heightened anxiety, and decreased work productivity. These factors influence motivation and personal growth in professional endeavors. Furthermore, the article offers practical recommendations for managing perfectionism, including goal setting, self-motivation strategies, and stress management techniques. These recommendations aim to reduce problems and foster strong, balanced personal and career development.

Keys words: *perfectionism, personal career, constructive perfectionism, destructive perfectionism, stress and dissatisfaction, motivation, work quality, management strategies, realistic goals, work-life balance.*

Аннотация. Данная статья глубоко анализирует психологическое влияние перфекционизма на карьерное развитие личности. В качестве положительных аспектов перфекционизма выделяются стремление к высокому качеству, полное раскрытие своих возможностей и стремление к успеху. Однако в статье также рассматриваются негативные стороны перфекционизма, такие как чрезмерный стресс, постоянная тревога и снижение трудовой продуктивности. Эти аспекты оказывают влияние на мотивацию и личностное развитие в карьерной деятельности. В статье также представлены практические рекомендации по управлению перфекционизмом, включая планирование целей, самостимуляцию и стратегии управления стрессом. Эти рекомендации помогают уменьшить проблемы и достичь сильного, сбалансированного личного и карьерного роста.

Ключевые слова: *перфекционизм, карьера личности, конструктивный перфекционизм, деструктивный перфекционизм, стресс и недовольство, мотивация, качество работы, стратегии управления, реалистичные цели, баланс работы и отдыха.*

KIRISH

Perfektsionizm shaxsning mukammallikka intilishi, o‘ziga va boshqalarga yuqori talablar qo‘yishi sifatida ta’riflanadi. Bu sifat karyera rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, biroq uning boshqarilmagan salbiy jihatlari jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin. Perfektsionizm shaxsning yuqori natijalarga erishishiga yordam bersa-da, ko‘p hollarda bu xususiyat stress va qoniqmaslikka olib keladi (Frost R., Marten P., Lahart C., Rosenblate R., 1990). Ijobiy ma’noda perfektsionizm yuqori sifat standartlariga intilish, mas’uliyatlilik va qat’iyatlilikni anglatadi. Perfektsionistlar o‘z mehnatlarini mukammal darajada bajarishga intilib, professional sohada yuqori yutuqlarga erishishlari mumkin. Ular o‘zlarini mas’uliyatli va ishonchli shaxs sifatida namoyon etib, jamoada yetakchilik pozitsiyasini egallashga muvaffaq bo‘ladilar. Shuningdek, bu sifat innovatsiyalarni rivojlantirish va jarayonlarni takomillashtirishda ham foydali bo‘lishi mumkin (Hewitt P., Flett G., 1991). Biroq perfektsionizmning salbiy ta’sirlarini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Mukammallikka haddan tashqari intilish ba’zan shaxsning o‘z-o‘ziga nisbatan haddan tashqari tanqidiy yondashuviga olib keladi. Bu esa stress, ruhiy charchoq va hatto depressiya kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Perfektsionistlar ko‘pincha xatolardan qo‘rqib, yangi loyihalarni boshlashga ikkilanadilar yoki vaqtni samarasiz boshqarish tufayli ishni o‘z vaqtida tugata olmaydilar (Stoeber J., Otto K., 2006). Tanqidni shaxsiy deb qabul qilish esa o‘ziga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi va professional rivojlanish jarayonini sekinlashtiradi (Shafran R., Mansell W., 2001). Shaxs karyerasida perfektsionizmning ta’sirini o‘rganish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, chunki mehnat bozori tobora raqobatbardosh bo‘lib bormoqda. Tashkilotlar yuqori

malakali va puxta ishlaydigan xodimlarni qadrlashadi, biroq haddan tashqari talabchanlik va stress ish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, perfektsionizmning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish orqali uning karyeraga ta'sirini yaxshiroq tushunish va boshqarish yo'llarini aniqlash muhim ahamiyatga ega (Egan S., Wade T., Shafran R., 2011).

ADABIYOTLAR TAHLILI

Perfektsionizmning shaxs karyerasi rivojlanishiga ta'sirini o'rganishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. R.O. Frost va uning hamkasblari (1990) o'z ishlarida perfektsionizmni turli o'lchovlarda tahlil qilgan holda, uning shaxsning o'z-o'ziga va atrof-muhitga bo'lgan talabchanligini aniqlashga urg'u berganlar (Frost R., Marten P., Lahart C., Rosenblate R., 1990). P.L. Hewitt va G.L. Flett (1991) perfektsionizmni uchta asosiy ko'rinishda — o'z-o'ziga nisbatan, boshqalarga nisbatan va ijtimoiy talablar shaklida o'rganib, bu tushuncha qanchalik keng va murakkab ekanligini namoyish etgan (Hewitt P., Flett G., 1991). J. Stoeber va K. Otto (2006) o'z tadqiqotlarida perfektsionizmning ijobiy va salbiy jihatlarini farqlashga e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, konstruktiv perfektsionizm ish unumdorligi va sifat standartlarini oshirishga yordam beradi, destruktiv perfektsionizm esa stress va psixologik zo'riqishni kuchaytiradi (Stoeber J., Otto K., 2006). R. Shafran va W. Mansell (2001) esa perfektsionizmning salbiy jihatlariga urg'u berib, uning psixopatologik oqibatlari haqida keng tahlil berganlar (Shafran R., Mansell W., 2001).

Adabiyotlarda, shuningdek, perfektsionizm va ish unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik ham keng o'rganilgan. S.J. Egan, T.D. Wade va R. Shafran (2011) perfektsionizmning transdiagnostik jarayon sifatida ruhiy salomatlikka salbiy ta'sirini o'rganganlar, bu esa ishdagi stress va qoniqmaslikka olib kelishini ko'rsatgan (Egan S., Wade T., Shafran R., 2011). Ushbu tahlillar perfektsionizmning ikki tomonlama ta'sirini aniqlashda muhim bo'lib, shaxsiy va professional rivojlanishda uning o'rni haqida chuqurroq tushuncha beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Perfektsionizmning konstruktiv va destruktiv ta'sirlarini, shuningdek, shaxs karyerasiga qanday yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatishini foiz ko'rsatkichlari orqali aks ettiradi. Unda konstruktiv ta'sir sifatida ish sifati, motivatsiya va rahbarlik sifatlariga ta'sir ko'rsatadigan omillar keltirilgan. Destruktiv ta'sirlar esa stress, qoniqmaslik va vaqtni samarasiz boshqarish holatlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, perfektsionizmni boshqarish strategiyalari va ularning natijalari ham alohida ko'rsatilgan. Jadval natijalari foiz ko'rsatkichlari orqali respondentlar fikrlarining umumlashgan tahlilini taqdim etadi. Maqsad – perfektsionizmning shaxsning professional rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini yanada yaxshiroq anglashdan iborat.

Perfektsionizmning shaxs karyerasiga ta’siri natijalari

Ko‘rsatkichlar	Natijalar (%)
Perfektsionizmning konstruktiv ta’siri	**100%**
Ish sifati va puxtaligi	67
Motivatsiya va qat’iyatlilik	20
Rahbarlik sifatlari	13
Perfektsionizmning destruktiv ta’siri	**100%**
Stress va ruhiy charchoq	42
Ishdan qoniqmaslik	38
Vaqtni samarasiz boshqarish	20
Perfektsionizmning karyeraga ta’siri	**100%**
Yuqori lavozimlarga ko‘tarilish	53
Yangi loyihalarni boshlashdagi qo‘rquv	31
Rahbarlar va jamoa bilan munosabatlar	16
Perfektsionizmni boshqarish strategiyalari	**100%**
Realistik maqsadlarni belgilash	60
Ish va dam olish muvozanatini saqlash	28
Konstruktiv tanqidni qabul qilish	12

Yuqoridagi jadvalda perfektsionizmning konstruktiv va destruktiv jihatlarining shaxs karyerasiga ta’siri foiz ko‘rsatkichlari bilan taqdim etilgan. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha izoh berilib, natijalar umumiy qarash uchun tizimli ravishda tartiblangan. Perfektsionizmning boshqarilishi bo‘yicha strategiyalar ham alohida o‘rganilgan va ularning samaradorligi qayd etilgan. Perfektsionizmning shaxs karyerasiga ta’sirini ko‘rsatadi va uning konstruktiv, destruktiv jihatlari, karyeraga ta’siri va boshqarish strategiyalarining foiz ko‘rsatkichlarini aks ettiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Perfektsionizmning konstruktiv jihatlari 100% sifatida baholanib, ulardan eng katta ta’sirni ish sifati va puxtaligi (67%) tashkil etgan. Bu shaxsning yuqori sifatga intilishini ko‘rsatadi. Motivatsiya va qat’iyatlilik (20%) ham muhim omil bo‘lib, rahbarlik sifatlari (13%) konstruktiv ta’sirlar orasida eng past ko‘rsatkichni ko‘rsatgan.

Perfektsionizmning destruktiv jihatlari ham 100% baholangan, unda stress va ruhiy charchoq (42%) eng yuqori foizni egallagan. Bu salbiy ta’sir shaxsning ruhiy va jismoniy salomatligiga bo‘lgan xavfni aks ettiradi. Ishdan qoniqmaslik (38%) va vaqtni samarasiz boshqarish (20%) destruktiv jihatlar ichida muhim o‘rin tutadi.

Perfektsionizmning karyeraga ta’siri 100% deb qayd etilib, yuqori lavozimlarga ko‘tarilish (53%) eng ijobiy ko‘rsatkich sifatida qayd etilgan. Ammo yangi loyihalarni boshlashdagi qo‘rquv (31%) va rahbarlar va jamoa bilan munosabatlardagi qiyinchiliklar (16%) ushbu sohada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Perfektsionizmni boshqarish strategiyalari ham 100% baholangan bo‘lib, ularda realistik maqsadlarni belgilash (60%) eng samarali usul sifatida e’tirof etilgan. Ish va dam olish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash (28%) va konstruktiv tanqidni qabul qilish (12%) esa nisbatan pastroq ko‘rsatkichlarni tashkil etgan (1-jadval).

Tadqiqot natijalarida perfektsionizmning ikkiyoqlama ta’siri aniq ko‘rsatilgan. Konstruktiv jihatlar shaxsning professional o‘sishiga yordam bersa-da, destruktiv jihatlar stress va ishdan qoniqmaslikka olib keladi. Perfektsionizmni boshqarish strategiyalaridan samarali foydalanish, salbiy ta’sirlarni kamaytirib, shaxsning karyera muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi. Bu jihatlar realistik maqsadlar belgilash va ish hayotidagi muvozanatni ta’minlashning muhimligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot perfektsionizmning shaxs karyerasiga ijobiy va salbiy ta’sirlarini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, perfektsionizm konstruktiv shaklda boshqarilganda yuqori sifat standartlari, motivatsiya va rahbarlik sifatlari orqali shaxsning professional o‘sishiga hissa qo‘shadi. Biroq, destruktiv perfektsionizm stress, ish qoniqmasligi va vaqtni samarali boshqarishda muammolarni keltirib chiqarib, karyera rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Perfektsionizmning konstruktiv ta’sirini maksimal darajada oshirish uchun realistik maqsadlar belgilash, ish va dam olish muvozanatini ta’minlash va tanqidni konstruktiv qabul qilish kabi boshqarish strategiyalari samarali bo‘lib, salbiy ta’sirlarni kamaytirishga yordam beradi. Mukammallikka intilish nafaqat shaxsning karyera rivojida, balki uning ruhiy salomatligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Egan, S. J., Wade, T. D., & Shafran, R. (2011). *Perfectionism as a Transdiagnostic Process*. Clinical Psychology Review, 31(2), 203–212.

2. Frost, R. O., Marten, P., Lahart, C., & Rosenblate, R. (1990). *The Dimensions of Perfectionism*. Cognitive Therapy and Research, 14(5), 449–468.

3. Hewitt, P. L., & Flett, G. L. (1991). *Perfectionism in the Self and Social Contexts*. Journal of Personality and Social Psychology, 60(3), 456–470.

4. Shafran, R., & Mansell, W. (2001). *Perfectionism and Psychopathology*. Journal of Clinical Psychology, 57(10), 1205–1227.

5. Stoeber, J., & Otto, K. (2006). *Positive Conceptions of Perfectionism*. Personality and Social Psychology Review, 10(4), 295–319.

6. Frost, R. L., Marten, P. A., Lahart, C., & Rosenblate, R. (1990). The dimensions of perfectionism. Cognitive Therapy and Research, 14(5), 449-468. https://doi.org/10.1007/BF01172967

7. Hewitt, P. L., & Flett, G. L. (1991). Dimensions of perfectionism in unipolar depression. Journal of Abnormal Psychology, 100(2), 98-101. https://doi.org/10.1037/0021-843X.100.2.98

8. Gafurova, L. (2021). Karyera rivojlanishida perfektsionizmning o‘rni: Psixologik yondashuvlar va tadqiqotlar. – Toshkent.

9. Langley, J., & Brown, T. (2016). The impact of perfectionism on career development outcomes. Journal of Career Assessment, 24(3), 510-532. https://doi.org/10.1177/1069072714563320

10. Hewitt, P. L., & Flett, G. L. (1991). Perfectionism in the self and social contexts: Conceptualization, assessment, and association with psychopathology. Journal of Personality and Social Psychology, 60(3), 456-470.

REFERENCES:

1. Egan, S. J., Wade, T. D., & Shafran, R. (2011). *Perfectionism as a Transdiagnostic Process*. Clinical Psychology Review, 31(2), 203–212.

2. Frost, R. O., Marten, P., Lahart, C., & Rosenblate, R. (1990). *The Dimensions of Perfectionism*. Cognitive Therapy and Research, 14(5), 449–468.

3. Hewitt, P. L., & Flett, G. L. (1991). *Perfectionism in the Self and Social Contexts*. Journal of Personality and Social Psychology, 60(3), 456–470.

4. Shafran, R., & Mansell, W. (2001). *Perfectionism and Psychopathology*. Journal of Clinical Psychology, 57(10), 1205–1227.

5. Stoeber, J., & Otto, K. (2006). *Positive Conceptions of Perfectionism*. Personality and Social Psychology Review, 10(4), 295–319.

6. Frost, R. L., Marten, P. A., Lahart, C., & Rosenblate, R. (1990). The dimensions of perfectionism. Cognitive Therapy and Research, 14(5), 449-468.

https://doi.org/10.1007/BF01172967

7. Hewitt, P. L., & Flett, G. L. (1991). Dimensions of perfectionism in unipolar depression. Journal of Abnormal Psychology, 100(2), 98-101. https://doi.org/10.1037/0021-843X.100.2.98

8. Gafurova, L. (2021). Karyera rivojlanishida perfektsionizmning o‘rni: Psixologik yondashuvlar va tadqiqotlar. – Toshkent. (In Uzbek)

9. Langley, J., & Brown, T. (2016). The impact of perfectionism on career development outcomes. Journal of Career Assessment, 24(3), 510-532. https://doi.org/10.1177/1069072714563320

10. Hewitt, P. L., & Flett, G. L. (1991). Perfectionism in the self and social contexts: Conceptualization, assessment, and association with psychopathology. Journal of Personality and Social Psychology, 60(3), 456-470.

YOSH SAMBO KURASHCHILARNING BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA MAXSUS O‘YINLAR ORQALI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

DEVELOPMENT OF YOUNG SAMBO WRESTLERS’ PHYSICAL TRAINING THROUGH SPECIAL GAMES AT THE INITIAL STAGE

РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ САМБИСТОВ ПОСРЕДСТВОМ СПЕЦИАЛЬНЫХ ИГР НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ

Ma’murbekova Gulzoroy A’zamjon qizi
Oriental universiteti o‘qituvchisi
Mustaqil izlanuvchi
Tel.: +998 97 765-01-17
e-mail: gulzoroymamurbekova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yosh sambo kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda maxsus o‘yinlardan foydalanib, funksional va asosiysi jismoniy tayyorgarlikni oshirish, bellashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish, taktik fikrlashni yaxshilash, qiyin vaziyatlarda bellashuv olib borish qobiliyatini oshirish va an’anaviy bo‘lmagan usullarni tezkorlik bilan amalga oshirish imkoniyatlarini rivojlantiradi usullari ko‘rsatilgan. Eksperiment natijalari maxsus o‘yinlarning yosh sportchilar uchun motivatsion va samarali metodik yondashuv ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur maqola amaliyotchi murabbiylar va tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy jihatdan qimmatli ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *sport, boshlang‘ich tayyorgarlik, ko‘nikma, sog‘lom bosqich, o‘yin vazifalari, sambistlar, muvofiqlashtirish,qobiliyat, texnik faoliyat.*

Аннотация. В статье используются специальные игры для совершенствования общей и специальной физической подготовки юных самбистов, совершенствования функциональной и базовой физической подготовленности, развития соревновательных навыков, совершенствования тактического мышления, повышения способности к состязательности в сложных и нестандартных ситуациях. Показаны традиционные методы, которые разовьют способность быстро внедрять методы. Результаты эксперимента подтверждают, что специальные игры являются мотивационным и эффективным методическим подходом для молодых спортсменов. Данная статья имеет теоретическое и практическое значение для тренеров и исследователей.

Ключевые слова: *спорт, начальная подготовка, мастерство, здоровая фаза, игровые задачи, самбисты, координация, умение, техническая деятельность.*

Annotation. The article shows the ways in which young sambo wrestlers develop their abilities to increase functional and, most importantly, physical training using special games in increasing the level of general and special physical training, develop competency skills, improve tactical thinking, increase the ability to compete in difficult situations and quickly implement unconventional methods. The results of the experiment confirm that special games are a motivational and effective methodological approach for young athletes. This article holds theoretical and practical significance for coaches and researchers.

Keywords: *sports-recreational stage, game tasks, junior unarmed self-defence athletes, coordination skills, technical tasks.*

KIRISH

Zamonaviy sport uchun sportchilarning har tomonlama tayyorgarligi talablarini doimiy oshirib borish xarakterlidir. Bunday sharoitda yosh sambo kurashchilarining boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida texnik harakatlarining muvofiqlashtirish, chuqur o‘rganish katta ahamiyatga ega. Yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, sambo kurashiga xos bo‘lgan yuqori darajadagi kuch, tezlik, chidamlilik va texnik-taktik mahoratni shakllantirishda. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida maxsus o‘yinlardan foydalanish, sportchilarning nafaqat jismoniy sifatlarini rivojlantirishga, balki ularda musobaqa sharoitlariga moslashish, taktik fikrlashni yaxshilash va qiyin vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Maxsus o‘yinlar yosh sportchilarning qiziqishini oshiradi, mashg‘ulot jarayonlarini jonlantiradi va ularni sport faoliyatiga ko‘proq jalb etadi. Ushbu maqolada maxsus o‘yinlar orqali yosh sambo kurashchilarining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan usullar, ularning funksional va texnik-taktik rivojlanishga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – maxsus o‘yinlarni qo‘llash orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish va bellashuv ko‘nikmalarini mustahkamlash bo‘yicha samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqola yosh sportchilar bilan ishlovchi murabbiylar va sport metodistlari uchun nazariy va amaliy jihatdan qimmatli bo‘lib, sambo kurashida qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlarni ochib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turli yoshdagi bolalarda jismoniy fazilatlar bir vaqtning o‘zida hosil bo‘lmaydi. Har bir sifatni rivojlantirish uchun uning eng katta o‘sishiga erishish mumkin bo‘lgan ba'zi sezgir davrlar mavjud. Ular qobiliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga ega va genetik jihatdan aniqlanadigan iqtidorining rivojlanish dasturiga ega. Kichik yoshdagi bolalarda turli xil vosita harakatlariga qiziqish sezilarli darajada oshadi. Raqobat tuyg‘usining kuchayishi ularni yangi harakatlarni izlashga va ularni, ayniqsa,

kutilmagan holatlarda tanish bo‘lmagan narsalarni o‘rganishga olib keladi. Har bir inson nafaqat yangi harakatlarni o‘rganishga harakat qiladi, balki uni yaxshi sheriklar bilan egallashga harakat qiladi. Bu yoshda ular eng qiyin harakatlarni osongina muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari mumkin. Maktab yoshidagilarning ya’ni 7-17 yoshdagilarni puxta tuzilgan dastur bilan shug‘ullanadigan harakatlarda ta'lim olish uchun eng qulaydir, bu esa o‘z navbatida texnik tayyorgarlikning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi kunda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning biologik asoslari mavjud bo‘lib, ularning rivojlanishi ko‘p vositalar yig‘indisining shakllanishi asosida amalga oshiriladi. U bolalar va o‘smirlarning vosita funksiyasini rivojlantirishda katta tengsizlikni aniqlashga muvaffaq bo‘ladi. Sambo kurashi turli xil ekstremal harakatlarga boy sport turi bo‘lib, muayyan vazifa, kuch, vaqt va fazoviy parametrlar, muvofiqlashtirish murakkabligi va boshqalar bilan xarakterlanadi. Murakkab taktik va texnik harakatlar va majmualari, bir qator faoliyati doirasida ifodalaydi, 7-10 yoshli boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi sambochilarning harakat qobiliyatini yuqori o‘sish sur'atlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu markaziy asab tizimining yuqori plastisitivligiga va harakatlarning ma’lum vaqt xususiyatlarini takomillashtirishda ifodalangan vosita analizatorining jadal rivojlanishiga yordam beradi. Sambo kurashi mashg‘ulotlarida alohida o‘rin egallaydi. Bir qator mualliflarning fikriga ko‘ra, jismoniy rivojlantirishni takomillashtirish turli darajadagi malakali sportchilarni tayyorlashning muhim bo‘limlaridan biri sifatida qaralishi kerak. Shuning uchun, o‘quv jarayonida jismoniy rivojlantirishni takomillashtirishga katta e'tibor berilishi kerak, uni sportchilarni tayyorlashning muhim bo‘limlaridan biri sifatida ko‘rib chiqish kerak (Ilyin A., 2015).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotni nazariy rivojlantirish maqsadida, keyinchalik yosh sambo kurashchilarida sport va sog‘lomlashtirish va dastlabki bosqichlarda jismoniy rivojlantirishni shakllanishini dasturiy jihatdan metodik ta'minlash samaradorligini eksperimental tadqiqot jarayonida sinovdan o‘tkazildi. O‘rganish uch yil davomida 11 yoshli bolalar 2022-yildan 2022-yilgacha, unda 20 ta nazorat guruhi (NG) ishtirok etdi va 20ta tajriba guruhlari (TG). Tadqiqot Qarshi Bolalar va o‘smirlar kurash maktab internatida amalga oshirildi. NGning yosh sportchilari sambo bo‘yicha taqdim etilgan dastur bo‘yicha o‘qitildi. TG o‘quv dasturiga biz ishlab chiqqan texnik harakatlar maxsus harakatli o‘yinlar usuli kiritilgan. Bizning o‘yin uslubimizda, olib keladigan mashqlar, o‘yin vazifalari asosiy raqobat harakatining umumiy tuzilishini, texnik harakatlarning tashqi biomexanik tuzilishini saqlab qoladi. Ularni amalga oshirishda vosita harakatlarini rivojlantirishga yordam beradigan sharoitlar ta'minlanadi, izchillik va bosqichma-bosqichlikning psixologik shartlari asosida amalga oshiriladi, jismoniy rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Maxsus o‘yinlarni, o‘yin vazifalarini ishlab

chiqish, jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun maxsus o‘ng mashqlarni bajarish simulyatsiya mashqlariga asoslangan edi. Simulyatsiya mashqlari turli malakali sportchilarning texnik harakatlarini tayyorlash va takomillashtirishda ishlatilgan. Ularga ixtiyoriy mashqlar texnikasi haqida fikr yuritishga ruxsat berishdi, uning assimilyatsiya jarayonini osonlashtirish, raqobatbardosh mashqlar zarur muvofiqlashtirish tuzilishini amalga oshirish uchun hissa va funksional salohiyatini amalga oshirish samaradorligini oshirish, motor funksiyalari o‘rtasida samarali muvofiqlashtirish ta'minlash (Tastanov N., 2015). Yosh sambochilarning mashg‘ulotlarida foydalanish uchun tavsiya etilgan o‘yin vazifalari va mashqlari ikki guruhga bo‘lingan. Birinchisi, vosita tajribasini kengaytirish, funksional va asosiy jismoniy tayyorgarlikni oshirishga yordam beradigan maxsus o‘yinlar, umumiy rivojlanish maqsadlari va mashqlarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi guruh – o‘yinlar va maxsus yo‘nalishdagi vazifalar. Ular kurash san'ati qobiliyatlarini qo‘lga kiritish, taktik fikrlashni yaxshilash, kurashning qiyin holatlarida harakat qilish, noan'anaviy chiqishlarni topish, boshlang‘ich kurashchilarda kurash ruhini qo‘llab-quvvatlash, raqib bilan kurashishga tayyor bo‘lish tuyg‘usini tarbiyalashga yordam beradi. Ikkala o‘yin guruhi ham yosh sambochilarning umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan. Jismoniy rivojlantirishni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishi yangi turli xil vosita ko‘nikmalarini egallashdir. Bolalarda jismoniy rivojlantirish darajasini aniqlash uchun biz ikkita testdan foydalanganmiz: 3x10 m va Rombergning murakkab namunasi. Eksperiment boshlanishidan oldin o‘tkazilgan testda NG va TG bolalarining jismoniy tayyorgarligi darajasida sezilarli farqlar yo‘qligi aniqlandi: $p > 0,05$, 0,82 studentining t-mezonlari, T = 0,07 – Romberg namunasida). Jismoniy rivojlantirishni tarbiyalashda yangilik elementlarini o‘z ichiga olgan mashqlar ishlatilgan. Jismoniy rivojlantirishga qaratilgan vazifalar o‘quv mashg‘ulotining asosiy qismining boshida amalga oshirildi, bu esa yuqori sifatli fazilatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq. Dam olish intervallari nisbatan to‘liq tiklanish uchun yetarli edi. Bir mashg‘ulotda jismoniy rivojlantirishni rivojlantirish uchun mashqlar miqdori ahamiyatsiz edi, ammo ular deyarli har bir darsga kiritilgan. Jismoniy rivojlantirishni ta'lim asosiy vositasi aniqlik va turli signallari (yorug‘lik, tovush, obyekt harakat va boshqalar), farqlash, texnik harakatlar paytida kuch ta'sir muddati uchun tezlik javob uchun, vaqt qattiq cheklash bilan harakatlarni amalga oshirish tezligi qaratilgan mashqlar edi raqib tanasining harakatlanuvchi qismlari va harakatlarning o‘z vaqtida tuzatilishi mumkin bo‘lgan pozitsiyalarni oldindan bilish, vaqti-vaqti bilan va makonda o‘zgaruvchan vaziyatga yoki muammoning g‘ayrioddiy shakllanishiga hissa qo‘shish (Юнусов С., 2021).

XULOSA

Asosiy raqobat harakatining umumiy tuzilishini va texnik harakatlarning tashqi biomexanik tuzilishini saqlab turuvchi o‘yinlarni olib boruvchi mashqlarni, o‘yin

vazifalarini ishlab chiqish usuli, vosita harakatlarini rivojlantirishni osonlashtiradigan shart-sharoitlarni yaratishga, ketma-ketlik va bosqichma-bosqichlikning didaktik tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi (G‘ofurov Sh., 2021). Bu usul yosh sambochilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, vosita tajribasini kengaytirish, funksional va asosiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish, kurash mahorati ko‘nikmalarini olish, taktik fikrlashni yaxshilash, qiyin vaziyatlarda kurash olib borish qobiliyatini yaxshilash va ulardan an'anaviy bo‘lmagan usullarni tezda topish imkonini beradi. O‘quv mashg‘ulotlarini yanada aniqroq boshqarish imkonini beradi. Yosh sambo kurashchilarining boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida maxsus o‘yinlardan foydalanish ularning jismoniy rivojlanishida samarali yondashuv sifatida o‘z ahamiyatini isbotladi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maxsus o‘yinlar yordamida sportchilar nafaqat umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga, balki texnik-taktik ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham muvaffaq bo‘ladi. Bu esa ularning musobaqa faoliyatiga bo‘lgan tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Maxsus o‘yinlar yosh sportchilarning motivatsiyasini oshirish, jamoaviy hamkorlikni shakllantirish va qiyin vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, mazkur o‘yinlar murabbiylarga mashg‘ulot jarayonida sportchilarning kuch, chaqqonlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarini tizimli ravishda rivojlantirish imkonini yaratadi.

Mazkur metodika sportchilarni tayyorlashda an’anaviy usullarni samarali to‘ldiradi va amaliyotda qo‘llash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv yosh sambochilarni kelgusi bosqichlar uchun tayyorlashda innovatsion va motivatsion metod sifatida keng tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ilyin, A. A. (2015). *Tezkor kuch va eksplozivlikni rivojlantirish metodikasi* // Jismoniy tarbiya va sport, 7(3), 32-40.

2. Mixailov, S. T. (2016). *Sambo sporti: Trening metodikasi va psixologik tayyorgarlik //* Sport va jismoniy tarbiya, 10(4), 101-112.

3. Бобомуродов, Н. Ш. (2020). Структуры физической подготовленности курашистов // “Вестник” науки и образования, научно-методической журнал №4 (82). Часть 2. 2020 (стр. 41-44)

4. Tastanov N.A. (2015) Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – Toshkent.

5. Юнусов, С.А. (2021). Физическое воспитание школьников в инклюзивном образовании // “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal, Volume: 1, ISSUE: 6.

6. Юнусов, С.А. (2021). Особенности периодизации тренировочного процесса атлетов высококвалифицированных парапауэрлифтёров // Фан – спорт (илмий – назарий журнал) № 1.

7. G‘ofurov, Sh.H. (2021). Malakali sprinterchilarning sport mashg‘ulotlarini rivojlantirishning usullari // Academic research in educational sciences 2 (4), 309-313

8. Rakhmanova, D. A. (2024) Options of pedagogical control over motor preparition of gymnasts specializing in rhythmic gymnastics // EURASIAN JOURNAL OF SPORT SCIENCE, 1(2), 136-138.

9. Eshmanova Umida Abdulla qizi. Development of agility in female students through basketball game elements // THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, VOLUME-4, ISSUE-12.

10. Ma’murbekova Gulzoroy Azamjonovna. (2024) Improving the speed and agility of national wrestlers // The multidisciplinary journal of science and technology. Volume 4, Issue-12, 34-37.

REFERENCES:

1. Ilyin, A. A. (2015). Tezkor kuch va eksplozivlikni rivojlantirish metodikasi // Jismoniy tarbiya va sport, 7(3), 32-40. (In Uzbek)

2. Mixailov, S. T. (2016). Sambo sporti: Trening metodikasi va psixologik tayyorgarlik // Sport va jismoniy tarbiya, 10(4), 101-112. (In Uzbek)

3. Bobomurodov, N. Sh. (2020). Strukturi fizicheskoy podgotovlennosti kurashistov // “Vestnik” nauki i obrozavaniya, nauchno-metodicheskoy jurnal №4 (82). Chast 2. 2020 (str. 41-44) (In Russian)

4. Tastanov N.A. (2015) Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – Toshkent. (In Uzbek)

5. Yunusov, S.A. (2021). Fizicheskoe vospitanie shkolnikov v inklyuzivnom obrazovanii // “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal, Volume: 1, ISSUE: 6. (In Russian)

6. Yunusov, S.A. (2021). Osobennosti periodizasii trenirovochnogo prosessa atletov visokokvalifisirovannix parapauerliftyorov // Fan – sport (ilmiy – nazariy jurnal) № 1. (In Russian)

7. G‘ofurov, Sh.H. (2021). Malakali sprinterchilarning sport mashg‘ulotlarini rivojlantirishning usullari // Academic research in educational sciences 2 (4), 309-313. (In Uzbek)

8. Rakhmanova, D. A. (2024) Options of pedagogical control over motor preparition of gymnasts specializing in rhythmic gymnastics // EURASIAN JOURNAL OF SPORT SCIENCE, 1(2), 136-138.

9. Eshmanova Umida Abdulla qizi. Development of agility in female students through basketball game elements // THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, VOLUME-4, ISSUE-12.

10. Ma’murbekova Gulzoroy Azamjonovna. (2024) Improving the speed and agility of national wrestlers // The multidisciplinary journal of science and technology. Volume 4, Issue-12, 34-37.

O‘ZBEK MILLIY ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARDA IFODALANISHI

EXPRESSION OF UZBEK NATIONAL ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN SOMATIC PHRASEOLOGISMS

ВЫРАЖЕНИЕ УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ В СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ

Alimbayeva Shaxlo Tursunovna
Oriental universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari nomzodi
Tel.: +998 97 765-01-17
e-mail: shahloalimbayeva86@gmail.com

Nosirova Zamira Xosil qizi
Oriental universiteti,
Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Tel.: +998 99 810-87-46
e-mail: zamiranosirova306@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tili frazeologiyasidagi somatik frazeologik birliklar (tanaga oid iboralar) orqali o‘zbek xalqining milliy etnopsixologik xususiyatlari har tomonlama yoritilgan. Frazeologizmlar o‘zbek xalqining ma'naviy-madaniy dunyoqarashini, qadriyatlarini va milliy xarakterini aks ettiruvchi vosita sifatida o‘rganilgan. Maqolada somatik frazeologizmlar psixolingvistik tahlil qilinib, ularning xalq hayot tarzi, tarixiy an’analari va ijtimoiy munosabatlarida tutgan o‘rni ko‘rsatilgan. Shuningdek, frazeologizmlarning etnopsixologik mohiyati va undagi mantiqiy bog‘liqlik milliy mentalitet nuqtai nazaridan baholangan. Shuningdek, maqolada somatik frazeologizmlarni psixologik yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganishda, asosan, ularning inson ongidagi hissiy, kognitiv va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu maqola frazeologiya, etnopsixologiya va madaniyatshunoslik fanlarining tutashgan nuqtasini o‘rganishda nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek somatik frazeologizmlari, milliy xususiyatlar, milliy mentalitet, xalq qadriyatlari, frazeologik birlik.*

Annotation. In this article, the national ethnopsychological features of the Uzbek people are comprehensively covered through somatic phraseological units (phrases related to the body) in the phraseology of the Uzbek language. Phraseologisms have been studied as a means of reflecting the spiritual and cultural outlook, values and national character of the Uzbek people. In the article, psycholinguistic analysis of

somatic phraseologisms is carried out, and their place in the people's lifestyle, historical traditions and social relations is shown. Also, the ethnopsychological essence of phraseology and its logical connection were evaluated from the point of view of national mentality. Also, in the study of somatic phraseologisms from the point of view of psychological approach, special attention is paid to the analysis of their emotional, cognitive and social aspects in the human mind. This article has theoretical and practical significance in studying the intersection of phraseology, ethnopsychology and cultural studies.

Keywords: *Uzbek somatic phraseology, national characteristics, national mentality, national values, phraseological unity.*

Аннотация. В данной статье национальные этнопсихологические особенности узбекского народа всесторонне освещаются через соматические фразеологизмы (словосочетания, связанные с телом) во фразеологии узбекского языка. Фразеологизмы изучены как средство отражения духовно-культурного мировоззрения, ценностей и национального характера узбекского народа. В статье проведен психолингвистический анализ соматических фразеологизмов, показано их место в образе жизни людей, исторических традициях и общественных отношениях. Также оценена этнопсихологическая сущность фразеологии и ее логическая связь с точки зрения национального менталитета. Также при изучении соматических фразеологизмов с точки зрения психологического подхода особое внимание уделяется анализу их эмоционального, когнитивного и социального аспектов в сознании человека. Данная статья имеет теоретическое и практическое значение в изучении пересечения фразеологии, этнопсихологии и культурологии.

Ключевые слова: *Узбекская соматическая фразеология, natsionalьные особенности, natsionalьный менталитет, natsionalьные ценности, фразеологическое единство.*

KIRISH

Har bir xalqning madaniyati va psixologik o‘ziga xosligi o‘sha xalq tilida aks etadi. Til – milliy ong va madaniyatni ifodalovchi asosiy vositadir (Botirov B., 2011). Frazeologizmlar tilshunoslikda xalqning hayoti, madaniyati, urf-odatlari va etnopsixologik xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan boy manba hisoblanadi. O‘zbek xalqining mehribonlik, sabr-toqat, mehmondo‘stlik kabi milliy fazilatlari aynan ushbu iboralar, ayniqsa, somatik frazeologizmlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Somatik frazeologizmlar milliy ongning o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida xalqning ichki kechinmalari, hissiy holatlari va dunyoqarashlarini tushunishda muhim vositadir. Ular orqali o‘zbek xalqining madaniyati, tarixi va ruhiyati haqida ko‘plab qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. O‘zbek tilidagi somatik frazeologizmlar –

insonning tana a’zolariga bog‘liq frazeologik ifodalar bo‘lib, ular muayyan ma’nolarni yoki fikrlarni ko‘chma ma’noda ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, "bosh qotirmoq", "ko‘ngli vayron bo‘lmoq", "qo‘li baland kelmoq", “yuragi tosh” kabi iboralar xalqning psixologik va madaniy xususiyatlarini ifodalaydi. Ushbu frazeologizmlar o‘zbek tilida keng qo‘llanilib, milliy madaniyatga xos alohida ma'nolarni beradi.

Somatik frazeologizmlarning paydo bo‘lishiga tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillarning ta’siri katta. Masalan, “bosh egmoq” iborasining tarixiy ildizlari chuqur bo‘lib, u itoat ramzi sifatida qo‘llaniladi. Qadimda shohlar, xonlar huzurida a’yonlar va fuqarolar hurmat ma’nosida boshini quyi solib turishgan. Bu holat hozirda amaliy shaklda mavjud bo‘lmasa-da, ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga rioya qilish, o‘zini kichik va kamtarona tutish ma’nosidagi "boshini egdi" iborasida qo‘llaniladi. Bu ibora o‘zbek xalqining o‘zaro hurmatni saqlashga intilishining ifodasidir.

Somatik frazeologizmlar so‘zlarga his-tuyg‘u va jonlilik qo‘shadi, tilning ma’naviy va madaniy boyligini ko‘rsatadi, umumiy fikrni obrazli va aniq shaklda yetkazish imkonini beradi. Somatik frazeologizmlar orasida muloqotning noverbal tomonini aks ettiruvchi va uni ifodalovchi iboralarni ham uchratish mumkin. “Yuzini yerga qaratmaslik” iborasi o‘zbek xalqining hurmat va sha’nni yuqori qadrlashiga asoslangan ibora hisoblanib, xatti-harakatlardagi noverbal ifodalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bunga “qovog‘ini soldi”, “qoshi chimirildi” kabi iboralarni ham kiritish mumkin.

Somatik frazeologizmlarni psixologik yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganishda, asosan, ularning inson ongidagi hissiy, kognitiv va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, o‘zbek millatida shaxsning hissiy-emotsional holatlari ifodasida ham somatik frazeologizmlardan keng foydalaniladi. Masalan, “yuragi siqildi” iborasi qayg‘u yoki tashvish holatini, “ko‘zi ochildi” esa anglash yoki tushunish jarayonini aks ettiradi. Ba’zan depressiv holatni ifoda etishda yoki stressga barqarorlik va qahri qattiqlik ma’nosida "qalbi muzlagan" iborasi qo‘llaniladi. Shuningdek, “ko‘ngli o‘ksidi” iborasidagi “ko‘ngil” tushunchasi hissiy va ruhiy holatni anglatuvchi markaz sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbeklarda “ko‘ngil” juda muhim tushuncha bo‘lib, u insonning ichki dunyosini ifodalaydi. “Ko‘ngli vayron bo‘lmoq”, “ko‘ngil bermoq” kabi iboralar bunga misoldir. “Ko‘ngli vayron” iborasi o‘z-o‘zini anglashdagi iztirobni, uning muqobili sifatida “yuragi tog‘dek” iborasi esa ichki kuch va bardoshni ifodalaydi.

Shaxslararo munosabatlarda hissiy holatlarni tushuntirish uchun ishlatiladigan “qo‘l cho‘zmoq” iborasi yordam so‘rash yoki yordam ko‘rsatishga ishora qiladi.

Tana qismlari bilan bog‘liq iboralar milliy mentalitetda mavjud bo‘lgan ba’zi stereotiplarni ham ifoda etadi. Masalan, “Qoshlari kamon”, “ko‘zlari gavhar” iborasida go‘zallikning ideali sifatida egilgan ingichka qosh, katta ko‘zlar ta’riflanadi. Bu

iboralarning folklorda keng tarqalishi ayollarning tashqi ko‘rinishini muayyan qolipga solishga xizmat qilgan.

Ba’zi iboralar insonning o‘ziga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi, masalan, “o‘zini yerga urdi” – o‘zini past baholash, “bosh ko‘tardi” – o‘z qadr-qimmatini anglashni bildiradi.

O‘zbek xalqining asosiy milliy mental xususiyatlaridan biri bo‘lgan mehmondo‘stlik "ko‘ngli ochiq", "qo‘lidan choy uzilmaydi" kabi iboralarda, sabr-toqat va chidamlilik "yuragi keng", "tishini tishiga qo‘ydi" kabi frazeologik birliklarda aks etadi.

Tana a’zolari bilan bog‘liq frazeologizmlarda biror tana a’zosi har safar turli mazmunlarda ham ishlatilishi mumkin (Rahmatullayev Sh., 1978). Masalan: “bosh” so‘zi ishtirok etgan iboralarda “bosh ko‘tarmoq” iborasi mag‘rurlik yoki g‘urur belgisi sifatida tushunilsa, “bosh qotirmoq” muammoni hal qilishga qattiq o‘ylash, “boshidan oshmoq” haddan ziyod ko‘p mazmunini anglatadi. "Boshi osmonga yetdi" iborasi juda xursand bo‘ldi” ma'nosida qo‘llanilib, o‘zbek xalqining hissiyotlarini mubolag‘ali usulda ifodalashga moyilligini ko‘rsatadi. "Boshini qashlamoq" iborasi esa biror murakkab vaziyatni hal qilish, o‘ylab ko‘rishni anglatadi. Demak, iboralarning aksariyatida “bosh” yetakchilik va o‘ylashning ramzi sifatida gavdalanadi.

“Ko‘z” so‘zi orqali ifodalangan frazeologizmlarda bu timsol his-tuyg‘uni ifodalash vositasi bilan birga ayro ma’nolarda ham qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Masalan, “ko‘zga ko‘rinmoq” iborasi diqqatga tushmoq, “ko‘zi yorimoq” – tug‘ilish, “ko‘zi to‘ymoq” – qanoat, "ko‘zi quvnoq"- insonning his-tuyg‘ulari yoki kayfiyati yaxshi, quvonchli holatda bo‘lishi, "ko‘zi qiymadi" biror narsadan voz kechishga yoki biror kishi haqida salbiy harakat qilishga chiday olmadi ma'nosida ifodalanadi. Bu ibora o‘zbek xalqining boshqalar bilan bo‘ladigan aloqalarda hissiyotlarning ochiq va samimiy bo‘lishga, boshqalarga zarar yetkazmaslikka intilishning ramzi sifatida ko‘rish mumkin. Insonlarning oilasi yoki yaqinlariga bo‘lgan mehrini ifodalashda "ko‘z qorachig‘i kabi asrash" iborasi ham qo‘llanilib, unda yaqin kishini juda ardoqlash, qadrli narsani ehtiyot qilish mazmuni ifodalanadi.

“Quloq solmoq”, “qulog‘iga yetmoq” iboralarida “quloq” timsoli diqqat bilan tinglash, xabardor bo‘lish ma’nolarida qo‘llanilsa-da, “qulog‘i og‘ir” iborasida ushbu so‘zdan garanglik holatini ifodalashda foydalaniladi.

“Til” so‘zi ishtirok etgan “Tili qisqa”, “tili uzun” iboralari kishining imkoniyati darajasini, shaxslararo munosabatlardagi mavqeini ifodalasa, “tilidan bol tomadi” iborasi boshqalarga bo‘lgan ijobiy munosabat va maqtov belgisi sifatida qo‘llaniladi.

Jasorat va qo‘rqoqlikni ifodalashda esa “yurak” timsolidan keng foydalaniladi. Masalan, “yuragi bo‘sh”, “yurak yutmoq”, “yuragi baquvvat” iboralari shular jumlasidandir. Iztirob chekish, qayg‘uni his qilishda foydalaniluvchi "yuragi ezildi" iborasida ham “yurak” hissiy jarayonlarni kechiruvchi asosiy a’zo sifatida tasvirlanadi.

“Qo‘l” so‘zi ishtirok etgan “qo‘lidan kelmaydi” iborasi insonning o‘ziga nisbatan ishonchi sustligini aks ettiradi. “Qo‘li uzun” – imkoniyati katta, “qo‘li bo‘sh emas” – band bo‘lmoq, “qo‘l qovushtirib turmoq” – hech narsa qilmaslik, "qo‘l uchida qarash"- e’tiborsiz yoki beparvolik bilan muomala qilish ma’nosida qo‘llaniladi. Bunda asosan “qo‘l” so‘zi harakat va yordam ramzi sifatida ishlatiladi.

“Oyoq” so‘zi ishtirok etgan iboralar sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: oyoqqa turmoq – mustaqil bo‘lish, oyog‘ida turolmaslik – qattiq xursand yoki asabiy bo‘lish, "oyoqlari yerga tegmaslik"- juda baxtli yoki quvonchli bo‘lish, xushhollikdan uyalmaslik. Bu ibora, o‘zbeklar orasida baxtning, muvaffaqiyatning va yuksak maqomning maxsus qadrlanishini ko‘rsatadi. "Oyog‘i yengil" kelgan joyida ishlar osonlikcha amalga oshadigan yoki muvaffaqiyat keltiradigan insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu ibora o‘zbek xalqining ezgu niyatlar bilan bog‘liq xalqona falsafasini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Somatik frazeologizmlarni tadqiq qilish sohasida o‘zbek tilshunosligida bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Ular asosan qiyosiy tahlil usullariga tayanadi va o‘zbek tilini boshqa tillar bilan qiyoslab o‘rganishni o‘z ichiga oladi (Boltayeva B., 2019; Batirxanova M., 2022). Shuningdek, kognitiv va lingvomadaniy jihatlarini o‘rganish ham dolzarb hisoblanadi. Masalan, insonning “qalb”, “bosh”, “qo‘l” kabi tana a’zolariga oid frazeologik birliklar milliy qadriyatlarni ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tilidagi somatik frazeologizmlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda somatik frazeologizmlarning ma’naviy ahamiyati, tarjima muammolari, kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar o‘z aksini topgan.

Frazeologizmlarni, jumladan, somatik frazeologizmlarni boshqa tillarga to‘g‘ri va muvaffaqiyatli tarjima qilish masalalari tadqiq qilingan (Batirxanova M., 2022). M. Batirxanovaning qayd etilishicha, “Bosh qotirmoq” yoki “Qo‘l ochmoq” kabi frazalarni to‘g‘ri tarjima qilish uchun ularning lingvomadaniy xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Bu muammo, ayniqsa, o‘zbek tilining boshqa tillar bilan qiyosiy tadqiqi jarayonida muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tilida frazeologik birikmalar qo‘llanilishidagi o‘ziga xos jihat sifatida N.Uluxo‘jayev somatizm, ya’ni ko‘zlarning saxiylik va baxillik kabi shaxs xususiyatlarini ifodalashini keltiradi. Misol tariqasida doimo barcha narsadan qoniqmaslik, yetishmovchilikni his qilaveruvchi insonlarga nisbatan “ko‘zi och”, bunga qarama-qarshi mazmunda esa qanoatli insonlarga nisbatan “ko‘zi to‘q” iborasi qo‘llaniladi (Улухужаев Н., 2016). O‘zbek tilida somatik frazeologizmni tadqiq etgan A.Isayevning ta’kidlashicha, *ko’zining paxtasi chiqdi, ko’zi yorimoq, ko’zini moshdek* ochmoq singari frazemalarni o’zbek tili frazeologik fondining o’ziga xos

frazemalaridir. Muallif bu frazemalarning boshqa tillarda muqobillari mavjud emasligini ta’kidlaydi (Исаев А., 1976).

O‘zbek xalq iboralari orasida keng qo‘llaniluvchi “Boshini ikkita qilmoq”, “Bir yostiqqa bosh qo‘ymoq”, “Boshini qovushtirmoq” iboralarida “bosh” timsolidan foydalanilgan. Ushbu timsol orqali jinsidan qat’iy nazar “inson” mazmuni sinekdoxa asosidagi ma’no ko‘chishi orqali aks ettirilgan. Unda oila bo‘lib yashash, turmush qurish ma’nosi ifodalangan bo‘lib, erkak va ayol mavqeining teng ko‘rilishi ifoda etiladi.

XULOSA

Demak, o‘zbek milliy etnopsixologiyasida somatik frazeologizmlar xalq mentaliteti, madaniy qadriyatlari va milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi muhim til birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu frazeologizmlar til orqali xalqning dunyoqarashini, hissiy kechinmalarini va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “ko‘ngli vayron bo‘ldi” iborasi chuqur iztirobni, “yuragi tog‘dek” esa katta bardosh va jasoratni ifodalaydi. Bu iboralar o‘zbek xalqining emotsional va psixologik holatlarini mazmunan ifodalash bilan birga, ularning ijtimoiy va madaniy o‘ziga xosligini ham yoritib beradi. Frazeologik birliklarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, somatik birliklar xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotda keng qo‘llanilib, milliy xarakterni shakllantirishda muhim omildir. Ularning lingvistik va psixologik tahlili orqali o‘zbek xalqining turmush tarzi, ma’naviy qadriyatlari yanada chuqurroq ochib berilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Botirov B.M. (2011) O‘zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi.

2. Улухужаев Н.У. (2016) Лингвокультурологический аспект фразеологических единиц узбекского языка // Молодой учёный, № 19 (123). – С. 614-617.

3. Исаев А. (1976) Соматические фразеологизмы узбекского языка: диссертация кандидата филологических наук. – Ташкент. – 201 с.

4. Yo‘ldoshev B. (2013) O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Monografiya. To‘ldirilgan va tuzatilgan ikkinchi nashri. – Samarqand: SamDU nashri. – 116 b.

5. Rahmatullayev Sh. (1978) O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi.

6. Boltayeva B.I. (2019) O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik pragmatik tahlil). Filol. fan. dok. diss. ... avtoreferat. Samarqand.

7. Batirxanova M.O. (2022) Somatik frazeologik birliklar tarjimasining lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari (o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi tana a’zolarining “Bosh” qismi asosida) Filol. fan. dok. diss. ... avtoref. – Andijon.

8. Omonov, F. (2020). O‘zbek milliy etnopsixologik xususiyatlari va ularning tilga aks ettirilishi. – Toshkent.

9. Abdullaeva, L. (2018). O‘zbek frazeologiyasida somatik frazeologizmlar: Ta’rif va tahlil. – Samarqand.

10. Karimov, Sh. (2019). Milliy til va madaniyat: Etnopsixologik nuqtai nazar. – Buxoro.

REFERENCES:

1. Botirov B.M. (2011) O‘zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi. (In Uzbek)

2. Uluxujaev N.U. (2016) Lingvokulturologicheskiy aspekt frazeologicheskix edinis uzbekskogo yazika // Molodoy uchyoniy, № 19 (123). – S. 614-617. (In Russian)

3. Isaev A. (1976) Somaticheskie frazeologizmi uzbekskogo yazika: dissertasiya kandidata filologicheskix nauk. – Tashkent. – 201 s. (In Russian)

4. Yo‘ldoshev B. (2013) O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Monografiya. To‘ldirilgan va tuzatilgan ikkinchi nashri. – Samarqand: SamDU nashri. – 116 b. (In Uzbek)

5. Rahmatullayev Sh. (1978) O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

6. Boltayeva B.I. (2019) O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik pragmatik tahlil). Filol. fan. dok. diss. ... avtoreferat. – Samarqand. (In Uzbek)

7. Batirxanova M.O. (2022) Somatik frazeologik birliklar tarjimasining lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari (o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi tana a’zolarining “Bosh” qismi asosida) Filol. fan. dok. diss. ... avtoref. – Andijon. (In Uzbek)

8. Omonov, F. (2020). O‘zbek milliy etnopsixologik xususiyatlari va ularning tilga aks ettirilishi. – Toshkent. (In Uzbek)

9. Abdullaeva, L. (2018). O‘zbek frazeologiyasida somatik frazeologizmlar: Ta’rif va tahlil. – Samarqand. (In Uzbek)

10. Karimov, Sh. (2019). Milliy til va madaniyat: Etnopsixologik nuqtai nazar. – Buxoro. (In Uzbek)

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CREATIVE QUALITIES IN FUTURE TEACHERS

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Raximova Nodira Bahodirjon qizi
Andijon davlat universiteti
“Umumiy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Tel.: +998 99 908-66-10
e-mail: nodira95@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishi haqida atroflicha yoritilgan. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun kreativlikning ahamiyati o‘quv va tarbiya jarayonlarini innovatsion yondashuvlar bilan tashkil etish zaruriyatini ko‘rsatadi. An’anaviy yondashuvlardan tashqari, pedagoglarning kreativ fikrlash, muammo yechish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlari ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Maqolada shuningdek, kreativlik sifatlarini rivojlantirishning usullari va metodikalariga e’tibor qaratilib, pedagogik nazariyalar va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatib berilgan. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *pedagog, kreativ, qobiliyat, tafakkur, kasbiy o‘sish, ehtiyoj, harakat, faollik, faoliyat.*

Annotation. This article emphasizes that the creativity qualities of future educators are directed towards their personal abilities, natural and social powers in organizing professional activities effectively and qualitatively. It elaborates on the significance of educators in higher education possessing creativity in relation to their traditional approaches to organizing teaching and learning processes. The importance of creativity for educators in higher education highlights the necessity of organizing educational and upbringing processes with innovative approaches. In addition to traditional methods, the ability of educators to think creatively, solve problems, and generate new ideas plays a crucial role in the educational process. The article also focuses on the methods and techniques for developing creativity qualities, demonstrating the connection between pedagogical theories and practices. This, in

turn, has great significance in developing students' independent thinking abilities.

Keywords: *pedagogic, creative, ability, thinking, professional growth, need, action, activity, activity.*

Аннотация. В данной статье говорится о том, что наличие креативных качеств у будущих педагогов направляет их личные способности, природные и социальные ресурсы на качественную и эффективную организацию профессиональной деятельности. В ней подробно освещается, как креативные качества помогают педагогам, работающим в высшем образовании, организовывать учебный и воспитательный процессы, используя традиционный подход. Актуальность креативности для педагогов, работающих в системе высшего образования, подчеркивает необходимость организации учебного и воспитательного процессов с применением инновационных подходов. Кроме традиционных методов, способности педагогов к креативному мышлению, решению проблем и разработке новых идей играют важную роль в образовательном процессе. В статье также обращается внимание на методы и техники развития креативных качеств, демонстрируя связь между педагогической теорией и практикой. Это имеет большое значение для развития у учащихся способности к самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: *педагогический, творческий, способность, мышление, профессиональный рост, потребность, действие, деятельность, активность.*

KIRISH

Ma’lumki, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P. Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi,

ilg‘or, bo‘lajak pedagoglarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hali hanuz shaxs o‘zlarida hamda bo‘lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar.

Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham bo‘lajak pedagoglar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar bo‘lajak pedagoglarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010), Ken Robinson (2007), Fisher, Frey (2008), Begetto, Kaufman (2013), Ali (2011), Treffinger (2008) G‘.B. Shoumarov, E.G‘oziev, V.M. Karimova, B.M. Umarov, N.G‘. Komilova, N.A. Sog‘inov, G.N.Tulaganova, F.F. Rajabova kabi psixolog va pedagoglarning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan.

Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanishicha, xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o‘qituvchining kreativligi boshqa (talaba)larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi.

Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga egadir; kreativ bo‘lish uchun kishi ko‘proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo‘lishi lozim. Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkin bo‘lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko‘nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo‘lajak pedagoglarga ham taalluqli bo‘lib, kreativlik ustida ishlash bo‘lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, bo‘lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo‘lishga undash o‘qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog‘liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘quvchi va bo‘lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham bo‘lajak pedagoglar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar bo‘lajak pedagoglarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o‘quv yilining oxirida kelib bo‘lajak pedagoglarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab bo‘lajak pedagoglarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavq-u shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti. Ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar ta’lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan bo‘lajak pedagoglar, bu kabi ta’lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda.

Hozirgi zamon psixologiyasi yuqori malakali pedagogik kadrlarga ehtiyoj sezadi. Ushbu ilmiy tadqiqotda quyidagilar amalga oshiriladi:

1. O‘qituvchilarni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish sistemalarni tatbiq etish;
2. Pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazishda qo‘yiladigan talablarni yangilash;
3. Ularning malakasini oshirish;
4. Eng yaxshi o‘qituvchilarning tajribalarni keng ommalashtirish.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tatbiq etish o‘qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O‘qituvchining kreativligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma’lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Kreativlik tushunchasi (ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma’nosini anglatadi. Haqiqatda esa yangi, original (o‘ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma’naviy bog‘liqliklarni yaratishdir.

Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’riflash mumkin.

O‘qituvchining kreativligi, bu uning qat’iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g‘oyalarni izlab topish layoqatidir.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkonini beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Axloqiy (o‘z-o‘zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadli);
4. Emotsional (his-hayajonli).

Kreativ layoqat quyudagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Kreativlik maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (dastur) tuzish,
4. Kreativ yo‘nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o‘z-o‘zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O‘qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

K. Rodgers “Ijod o‘z-o‘zini kuchaytirish demakdir” degan asarida ijodiy shaxs uchun eng asosiy savollardan birini beradi: “Meni meni hayot tarzim qoniqtiradimi yoki to‘g‘ri talqin etadimi. O‘qituvchining ushbu savolga javobi uning kasbiy va ijodiy cho‘qqilarga intilishi yuqori ijodiy malakali va o‘zini ijodiy tomondan to‘la namoyish etishga intilishi kreativ shaxs bo‘lishi”.

Shunday qilib kreativlik o‘qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo‘nalishi va o‘zini boshqara olishida ko‘rinadi va uni o‘zini faolligi, o‘zini-o‘zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o‘sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ

potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Kreativ potensial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ potensiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;
- ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va o‘zini-o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

O‘qituvchilar darslarda bo‘lajak pedagoglarning erkin fikr yuritishlarini ta’minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi.

“Kreativlik darslarida bo‘lajak pedagoglar birgina “to‘g‘ri” javobni izlash o‘rniga o‘zlarini erkin va xotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko‘p g‘oya va fikrlarni o‘rtaga tashlasalar, shuncha ko‘p g‘oyalar kreativ bo‘ladi (Simonton, 1999). O‘quvchilar “Aqliy hujum” metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Bo‘lajak pedagoglarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish va keyinchalik ularni mustaqil “sayohatga” qo‘yib yuborish ularda kreativ va hattoki noaniq bo‘lsa-da, turli g‘oyalarni o‘ylab topishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday “Qo‘rquv hissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; xavotir kreativlikning xizmatkoridir” (Goleman K., Ray, 1992). Bo‘lajak pedagoglarni yo‘naltirish, o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o‘quvchilari yoki yuqori kurslarning malakali bo‘lajak pedagoglari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo‘lib, yosh va tajribasiz bo‘lajak pedagoglarni ruhlantirib, bu esa o‘z o‘rnida kreativlik ko‘nikmasining shakllanishiga o‘z ta’siri o‘tkazadi (Amabile, 1998). O‘qituvchilar bo‘lajak pedagoglarni manbalar bilan ta’minlash, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning progress va muvaffaqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs bo‘lajak pedagoglari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqtira oladilar ham (masalan: ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni yechish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)”.

Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va boshqalar)ni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning kreativ potensiali quyidagi tarkibiy asoslarni o‘z ichiga oladi:

Maqsadli-motivli yondashuv (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko‘zga tashlanadi);

Mazmunli yondashuv (o‘zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi);

Tezkor-faoliyatli yondashuv (o‘zida ma’lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi);

Refleksiv baholash (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘zga tashlanadi);

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to‘rtta kreativlik ko‘nikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

Ravonlik. Ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi ko‘p degan so‘zga asoslanadi.

Moslashuvchanlik. Turli g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi o‘zgartirish degan so‘zga asoslanadi.

O‘ziga xoslik. Boshqalarga o‘xshamagan, ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish ko‘nikmasi noyob degan so‘zga asoslanadi.

Yaratuvchanlik. G‘oyalarni kengaytirish ko‘nikmasi qo‘shish degan so‘zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida bo‘lajak pedagoglardan ajoyib g‘oyalarni o‘ylab topish (o‘ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g‘oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog‘liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko‘nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Ravonlik. Kreativ ravonlikning asosiy maqsadi bo‘lajak pedagoglarda bir emas, balki bir nechta g‘oyalarni o‘rtaga tashlash ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Son asosiy maqsaddir; bir qator g‘oyalar ichidan bir yoki undan ko‘p maqbulini topishimiz mumkin. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar bo‘lajak pedagoglarda ravonlik ko‘nikmasini shakllantirish uchun “aqliy hujum” strategiyasidan foydalanadilar. Bu mashq og‘zaki yoki yozma (g‘oyalarni qog‘ozga yozib, keyingi talabaga qo‘shimcha g‘oyalar kiritish uchun uzatishi lozim) tarzda bajarilishi mumkin. “To‘xta va boshla” mazmundagi “Aqliy hujum” mashqida bo‘lajak pedagoglar g‘oyalarni o‘rtaga tashlab, ularni tahlil qiladilar va baholaydilar, so‘ng bu yana bir bor qaytariladi. Bo‘lajak pedagoglar bu mashqda yaxshi natijalarga erishsalar, ulardagi kreativlik ko‘nikmasi erkin va ravon

fikrlash ko‘nikmasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Agarda aksi bo‘lsa, doimiy mashq va tajriba yordamida yaxshi natijalarga erishish mumkin.

O‘qituvchi mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchragan bo‘lajak pedagoglarni kuzatishi tabiiy. Faqatgina yuzaki ma’lumotga ega bo‘lgan bo‘lajak pedagoglar cheklangan bilimga ega bo‘lganliklari sababli turli va qiziqarli g‘oyalarni o‘ylab topishda qiynaladilar. Ba’zi hollarda esa, yetarlicha ma’lumot va bilimga ega bo‘lajak pedagoglar ham mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchrashlari mumkin. Bunday vaziyatda o‘qituvchi quyidagi strategiyalardan foydalangan holda bo‘lajak pedagoglarga yordam berishi mumkin:

Sinfda bo‘lajak pedagoglarga ruh bag‘ishlovchi muhitni yaratish. O‘qituvchi bo‘lajak pedagoglarga sinfdagi barcha buyumlar, jihoz, deraza va devorga osilgan rasm, jadval, sxemalarga e’tibor qaratishni va ularga sinchiklab qarashni so‘raydi. Sinfdagi barcha narsalar bo‘lajak pedagoglarda qanday g‘oyalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ularga bu jihoz va buyumlar nimalarni eslatdi yoki qanday ma’lumot bilan bog‘liqligi bor? Masalan, agarda bo‘lajak pedagoglar sunami haqida “aqliy hujum” mashqini bajarayotgan bo‘lsalar, tashqarida nur sochib turgan quyosh ularga sunami quyoshli kunda ro‘y berishini eslatishi mumkin.

Yangi g‘oyalarni o‘ylab topishda bo‘lajak pedagoglar qiziqishlaridan foydalanish. “Aqliy hujum” mashqi ma’lum bir adabiy asar haqida bo‘lsa, asar qahramonlari xarakteri va ularning xatti-haraktlarini ular yoqtirgan asar qahramonlari, televizion ko‘rsatuv ijodkorlari yoki mashhur sportchilarning fe’l-atvori va xatti-harakatlari bilan solishtirishlari mumkin. Bo‘lajak pedagoglar kreativlikda ravonlik va erkinlikka erishmasalar, mashq va darslar jarayonida ularning miyasiga birinchi kelgan g‘oyagagina tayanib qoladilar, vaholanki bunday g‘oya boshqalarning g‘oyasida ajralib turmaydi va talabaning keng fikrlashidan dalolat bermaydi. Qolaversa, muammoning yechimini topishda qancha ko‘p g‘oya topilsa, to‘g‘ri javob yoki variantni tanlash imkoniyati shuncha katta bo‘ladi. Masalan, tarix darsi jarayonida yevropalik bosqinchilar Amerika mintaqasiga ilk bor qadam qo‘yganda ular topgan birinchi narsa “kompyuter” degan javob ham noto‘g‘ri bo‘lar edi; javoblar berilayotgan savollar doirasida bo‘lishi lozim. Savol qancha ko‘p detallarni o‘z ichiga olsa, bo‘lajak pedagoglar ham muvofiq ravishda javob topishga harakat qiladilar.

Moslashuvchanlik. O‘quvchilar keng fikr yurita olsalar, vaziyat va muammoga ham bir qancha va turli yechim topadilar. Bo‘lajak pedagoglarda moslashuvchanlikni ular turli nuqtai nazar va fikrlarni inobatga olganlari va ularni tahlil qilganlarida, turli fikrlarni bir-biri bilan solishtirganda va ularning o‘xshash va farqli tomonlarini topganlarida va nihoyat muvaffaqiyatga erishib, yaxshi natijalar ko‘rsatayotganlarida kuzatish mumkin. Moslashuvchan bo‘lish uchun bo‘lajak pedagoglar ma’lumotning faqat yuzaki qismini emas, balki uning chuqur mohiyatini anglab yetishlari lozim. Moslashuvchanlik ko‘nikmasini shakllantirishda bo‘lajak pedagoglar amaliyot bilan

ta’minlansa va ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilsa, kelgusida turli g‘oyalarni topishda bu kuchli stimul bo‘lib xizmat qiladi. Agarda talaba ko‘plab g‘oyalar topgan bo‘lsa, u moslashuvchanlikni emas, balki ravon fikrlashni namoyon qilmoqda, chunki bunda barcha e’tibor bitta yoki bir turdagi javoblarga qaratiladi. Bo‘lajak pedagoglarda moslashuvchalik ko‘nikmasini shakllantirishda soni jihatdan ko‘p emas, balki turli mazmundagi g‘oyalarni topish kerakligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Muammoning mazmunini chuqur anglagan holda ham, bo‘lajak pedagoglar turli g‘oyalarni topishda qiynaladilar yoki umuman bunga qodir bo‘lmaydilar. Bu esa, o‘z o‘rnida, ularda moslashuvchanlik ko‘nikmasini shakllantirish kerakligidan dalolat beradi.

O‘ziga xoslik. O‘ziga xoslik noodatiy g‘oyalar o‘ylab topish ko‘nikmasidir. O‘quvchilar o‘zlarida avval moslashuvchanlik va ravonlik ko‘nikmalarini shakllantirib, so‘ng noodatiy, original g‘oyalarni kashf etish ko‘nikmasini hosil qilishlari lozim. Ravon fikrlash ko‘nikmasi o‘quvchilarda originallikni rivojlantirishda boshlang‘ich va asos soluvchi qadam bo‘lib xizmat qiladi; agarda talaba ko‘p g‘oyalarni o‘rtaga tashlasa, ulardan bir yoki ikkitasi albatta boshqa talabaning g‘oyasi ham bo‘ladi (Simonton, 1999). Moslashuvchan fikrlash o‘quvchilarga ularning har bir g‘oyalari bir-biridan farqlanishini ko‘rish va anglash imkonini beradi; ularning orasida hammasidan ajralib turuvchi g‘oya bo‘lsa, demak, ana shunisi original (o‘ziga xos) g‘oya hisoblanadi.

Bo‘lajak pedagoglar original g‘oya kontekstdan kelib chiqishi lozimligini anglashlari lozim. G‘oya bir dars jarayonida, birgina sharoitlar va bir vaqt oralig‘ida taqdim etilishi lozim. Bo‘lajak pedagoglarda ravon fikrlash va moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida o‘ziga xos tarzda (original) fikrlash to‘g‘risida ham ma’lumot berib o‘tish lozim. Masalan, bo‘lajak pedagoglarni “aqliy hujum” strategiyasi yordamida ocharchilikka qarshi kurashish mavzusida muammoning yechimi ro‘yxatini tuzish (ravonlik), so‘ng berilgan g‘oyalarni bir necha kategoriyalarga bo‘lib chiqish (moslashuvchanlik) va ulardan qay biri o‘ziga xos (originallik) g‘oya ekanligini aniqlash bo‘lajak pedagoglarda shakllangan ko‘nikmalarning bir paytning o‘zida qo‘llanilishini ko‘rsatib beradi. (Mazkur yondashuv Iqtidorlilar insonlarning keng fikrlash modeli asosida yaratilgan; Schlichter, 1986). Moslashuvchan fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda bo‘lajak pedagoglar qiziqishlari va madaniy qarashlaridan foydalanish ularda originallikni tarbiyalashda katta samara beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar quyidagilardan iborat:

- Bo‘lajak pedagoglarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosligini inobatga olgan holda o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;

- zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish;
- ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;
- bo‘lajak pedagoglar tomonidan o‘quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o‘zlashtirganlik natijalarini, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;
- bo‘lajak pedagoglarning bilishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo‘yicha turli ko‘rinishdagi ishlarni olib borish;
- darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, to‘garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- bo‘lajak pedagoglar, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;
- bo‘lajak pedagoglarda sog‘lom turmush kechirishga bo‘lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigiyenaga amal qilish ko‘nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish malakalarini shakllantirish;
- ta’lim jarayonida turli ko‘rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish;
- didaktik material va ko‘rsatmali qurollarni ishlab chiqish;
- ota-onalarni pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o‘ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o‘rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan xabardor qilish;
- o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish muhim ahamiyatga egadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishi natijalariga asoslanib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. O‘qituvchilarni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish sistemalarni tatbiq etish;
2. Pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazishda qo‘yiladigan talablarni yangilash;
3. Ularning malakasini oshirish;
4. Eng yaxshi o‘qituvchilarning tajribalarni keng ommalashtirish.

Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’riflash mumkin (Fayzullayeva N. 2006).

Bo‘lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, bo‘lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, bo‘lajak pedagoglar ham shunday bo‘la oladi.

O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. (2013) Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Nizomiy nomli DTPU.
2. Sayidahmedov N. (2003) Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: Oliy pedagogika instituti.
3. Sultonova G.A. (2005) Pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.
4. To‘xtaxodjayeva M.X. (2010) Pedagogika nazariyasi. OTM uchun darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”.
5. Turdieva M. (2008) Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.
6. Fayzullaeva N. (2006) Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // Uzluksiz ta’lim jurnali. – Toshkent. 6-son.
7. Craft, A. (2005). Creativity in Education. – London: Continuum.
8. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to Be Creative. – Chichester: Capstone Publishing.
9. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1999). Teaching for Creativity: The First Step. In R. J. Sternberg (Ed.), Handbook of Creativity (pp. 11-30). – Cambridge: Cambridge University Press.
10. www.pedagog.uz

REFERENCES:

1. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. (2013) Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Nizomiy nomli DTPU. (In Uzbek)
2. Sayidahmedov N. (2003) Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: Oliy pedagogika instituti. (In Uzbek)
3. Sultonova G.A. (2005) Pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. (In Uzbek)

4. To‘xtaxodjayeva M.X. (2010) Pedagogika nazariyasi. OTM uchun darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”. (In Uzbek)

5. Turdieva M. (2008) Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. (In Uzbek)

6. Fayzullaeva N. (2006) Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // Uzluksiz ta’lim jurnali. – Toshkent. 6-son. (In Uzbek)

7. Craft, A. (2005). Creativity in Education. – London: Continuum.

8. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to Be Creative. – Chichester: Capstone Publishing.

9. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1999). Teaching for Creativity: The First Step. In R. J. Sternberg (Ed.), Handbook of Creativity (pp. 11-30). – Cambridge: Cambridge University Press.

10. www.pedagog.uz

TA’LIM MUASSASALARIDA PEDAGOG KADRLARNING XALQARO TADQIQOT TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

DEVELOPING THE SKILLS OF TEACHING STAFF IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO WORK WITH INTERNATIONAL RESEARCH PROJECTS

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ДЛЯ РАБОТЫ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИМИ ПРОЕКТАМИ

Xudayberdiyeva Muhayyo Qarshiboyevna
Toshkent shahar Yashnobod tumani
216-maktab oliy toifali matematika
va informatika fani o‘qituvchisi
Tel.: +998 71 290-40-15
e-mail: shahlo_1986@list.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda PISA (Program for International Student Assessment) va TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) dasturlari topshiriqlarining samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajara olish uchun o‘qituvchilar qanday ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerakligi tahlil qilinadi. Maqolada avvalo PISA va TIMSS dasturlarining ahamiyati va o‘quv jarayonidagi roli ko‘rsatib beriladi, shuningdek, bu dasturlar orqali talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini qanday ko‘rsatishi mumkinligi tahlil qilinadi. Tahlil natijalari asosida, Oliy ta’lim muassasalari pedagogika yo‘nalishi bitiruvchilari va o‘qituvchilar malaka oshirish kurslarida PISA va TIMSS dasturlari doirasida o‘qitishni tashkil etish muammolari ko‘rib chiqiladi. O‘qituvchilarning zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan uslublarni egallashi, didaktik va metodik tayyorgarlik darajasi hamda o‘quvchilarning ta’lim olishini eng yaxshi muvofiqlashtirish masalalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida, ta’lim jarayonining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim sifati, malaka oshirish, xalqaro tadqiqotlar, kreativ fikrlash, matematik savodxonlik, ta’lim berish shakllari.*

Annotation. This article is dedicated to studying the effectiveness of tasks from PISA (Program for International Student Assessment) and TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) based on the experiences of

developed countries. It analyzes the skills that teachers must possess to successfully complete these tasks. The article begins by highlighting the importance of the PISA and TIMSS programs and their roles in the educational process. Additionally, it examines how students can demonstrate their knowledge and skills through these programs. Based on the analysis results, it addresses the issues of organizing teaching within the framework of PISA and TIMSS in professional development courses for graduates of higher education institutions specializing in pedagogy. The capacity of teachers to adopt modern educational methods, their levels of didactic and methodological preparation, and the effective coordination of student learning are of significant importance. This research contributes to the development of practical recommendations aimed at enhancing teachers' professional growth and improving the quality of education, which, in turn, serves to enhance the overall quality of the educational process.

Keywords: *quality of education, advanced training, international research, creative thinking, mathematical literacy, forms of education.*

